

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI**

**ADLIYA ORGANLARI VA MUASSASALARIDA
DAVLAT TILIDA ISH YURITISHNI TASHKIL
ETISH BO'YICHA AMALIY QO'LLANMA**

Toshkent – 2021

MUNDARIJA

Kirish	3
1-qism. DAVLAT TILIDA ISH YURITISH.....	4
Davlat tilini bilishga qo'yiladigan minimal talablar	4
O'zbekiston respublikasining qonunlaridagi davlat tili sohasiga oid normalardan ko'chirmalar	8
Qonunosti hujjatlardagi davlat tili sohasiga oid normalardan ko'chirmalar	13
2-qism. O'ZBEK TILI VA LOTIN YOZUVIGA OID MUHIM MA'LUMOTLAR	40
O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari	41
O'zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari	42
Lotin alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvida ish yuritish uchun muhim tavsiyalar	51
Ko'p beriladigan savollar	54
Foydali ma'lumotlar	60
Foydali manbalar	62

KIRISH

Mamlakatimizda o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeい va nufuzini oshirish, jamiyatning barcha sohalarida faol qo‘llanilishiga erishish, yosh avlodning ona tilimizga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

So‘nggi bir necha yillarda davlat tili sohasida qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Adliya organlari va muassasalarini davlat huquqiy siyosatini amalga oshiruvchi sifatida qonunlarga itoatkorlikda barcha tuzilmalarga o‘rnak bo‘lishi talab qilinadi. Shu ma’noda adliya tizimida ish yuritish to‘liq davlat tilida amalga oshirilmoqda.

2020-yil 26-fevralda chiqarilgan Adliya vazirining 1-8/3-221/8-son Ko‘rsatmasida adliya organlari va muassasalarida ish yuritish, ichki hujjat almashinuvi va ishga oid yozishmalar to‘liq davlat tilida amalga oshirilishi talabi belgilangan.

Yuqoridagilarni e’tiborga olib, adliya organlari va muassasalarida davlat tilida ish yuritishda amaliy-uslubiy ko‘mak ko‘rsatish maqsadida ushbu qo‘llanma tayyorlandi.

Mazkur qo‘llanmada davlat tilida ish yuritishda zarur bo‘ladigan muhim ma’lumotlar, amaliy tavsiyalar va foydali manbalarga havolalar jamlangan.

1-QISM

DAVLAT TILIDA ISH YURITISH

Davlat tilini bilishga qo‘yiladigan minimal talablar

Davlat tilini bilish mezonlari va o‘lchovlari qanday? O‘zbek tilini qay darajada bilish davlat tilini bilish hisoblanadi?

Ushbu savollarga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasing O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilishda davlat tilini bilish darajasini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi qarori[1] bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilishda davlat tilini bilish darajasini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomdan javob topish mumkin. Unda Davlat tilini bilishga quyidagi minimal talablar qo‘yilgan.

Davlat tilini bilishga qo‘yiladigan minimal talablar

I. Tinglab tushunish

1. Tanish mavzularda ma’lumot beruvchi matnlarning asosiy mazmunini o‘qib tushuna oladi.
2. Sodda xabarlar, sodda yozma yo‘riqnomalar yoki ko‘rsatmalarni tushuna oladi.
3. O‘z qiziqishlari doirasidagi tele yoki radio dasturlar va boshqa manbalarni tinglab, asosiy ma’lumotlarni tushuna oladi.
4. Shaxsiy qiziqish, o‘qish yoki kasbga oid sohadagi og‘zaki manbalarni tinglab, asosiy mazmuni hamda maxsus ma’lumotlarni anglay oladi.
5. Til egasi bilan tanish va maxsus mavzuda muloqotga kirishganda uning aksariyat jihatlarini tushuna oladi.

II. Gapirish

1. O‘zi haqida og‘zaki ma’lumot bera oladi.
2. Ijtimoiy-maishiy mavzuda taklif etilgan suhbatga kirisha oladi.
3. Fikrini sodda tarzda izchillik asosida mantiqli tushuntirib bera oladi.
4. Tanish mavzularda o‘z fikrini bildira oladi (kitoblar, filmlar, musiqa xususida).

5. Hikoya yoki muhokama mazmunini sodda iboralar bilan qisqacha gapirib bera oladi.

III. O‘qish

1. Tanish mavzularda ma’lumot beruvchi matnlarning asosiy mazmunini tushuna oladi.

2. Joy yoki insonlar tasvirlangan qisqacha matnni tushuna oladi.

3. Sodda xabarlarni, masalan, oddiy xatlar, elektron xatlarni tushuna oladi.

4. Sodda yozma yo‘riqnomasi yoki ko‘rsatmalarni tushuna oladi va ularga amal qila oladi.

5. Munozarali matnnning xulosasini aniqlay oladi.

6. Matn mazmunining asosiy g‘oyasini ajrata oladi.

IV. Yozish

1. Shaxsiy xatlar (qisqa xabarlar, tabriklar, eslatmalar va hokazolar)ni yoza oladi.

2. Sodda anketalarni shaxsiy ma’lumot bilan to‘ldira oladi.

3. Rasmiy hujjatlar qoliplari asosida sodda shakldagi hujjatlarni yoza oladi.

4. O‘z qiziqishlariga taalluqli mavzuda qisqa, sodda esse yoza oladi.

5. Rasmiy xat, ish yuritish qog‘ozlarini (ariza, rozilik xatlari, rezyume) yoza oladi.

6. O‘z fikrini imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozma shaklda bayon qila oladi.

7. Imlo qoidalariga rioya qilgan holda diktant yoza oladi.

Demak, yuqorida sanalgan 5 ta punkt talablarini bilgan shaxs o‘zbek tilini bazaviy darajada biladi deyish mumkin.

Rahbar kadrlar va ma’sul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarning davlat tilini bilish darajasini aniqlash tizimi uchun ro‘yxatdan o‘tish bo‘yicha yo‘riqnomasi

Rahbar kadrlar va mas’ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarning davlat tilini bilish darajasini aniqlash tizimi uchun ro‘yxatdan o‘tish Davlat test markazining maxsus platformasi (dt.dtm.uz sayti) orqali amalga oshiriladi.

Bunda talabgor ro'yxatdan o'tish uchun saytga kirganda, dastlab telefon raqamini tasdiqlash oynasi chiqadi. Talabgor tomonidan telefon raqami kiritilganda, uning telefon raqamiga tasdiqlash uchun SMS-xabar yuboriladi.

1. Tasdiqlash oynasiga SMS-xabarda yuborilgan 5 xonali raqam kiritilib, telefon raqami tasdiqlanadi.

Shundan so'ng, tizimga pasport ma'lumotlari (jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami, pasport seriyasi va raqami) kiritiladi. Davlat test markazining maxsus platformasi, Davlat personallashtirish markazi tizimi, O'zbekiston Respublikasi Yagona milliy mehnat tizimi va Yagona billing tizimiga integratsiya qilingan bo'lib, talabgor pasport ma'lumotlarini kiritganda, uning familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, jinsi va rasmi Davlat personallashtirish markazining tizimidan, talabgorning ish joyi va lavozimi to'g'risidagi ma'lumotlari esa O'zbekiston Respublikasi Yagona milliy mehnat tizimidan real vaqt rejimida olinadi.

Agar talabgorning ma'lumotlari Yagona milliy mehnat tizimida mavjud bo'lmasa, unga u ishlaydigan tashkilot tomonidan ma'lumotlar Yagona milliy mehnat tizimiga kiritilishi lozimligi to'g'risida xabarnoma chiqadi. Talabgor uning ma'lumotlari Yagona milliy mehnat tizimiga kiritilgandan so'ng, ro'yxatdan o'tishni davom ettirishi mumkin bo'ladi.

Agar talabgorning ma'lumotlari tizimda mavjud bo'lsa, test topshirish hududi tanlanadi. Shundan so'ng unga shaxsiy kabinet yaratiladi va uning ma'lumotlari haqiqatan ham lavozimga tayinlanayotganligini tekshirish va tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Yagona milliy mehnat tizimi orqali talabgor ishlaydigan tashkilotga yuboriladi.

Ma'lumotlar talabgor ishlaydigan tashkilot tomonidan O'zbekiston Respublikasi Yagona milliy mehnat tizimi orqali tekshirilib, tasdiqlangandan so'ng, talabgorning shaxsiy kabinetida ariiasi qabul qilinganligi haqidagi ma'lumot paydo bo'ladi.

2. Tanlovari amalga oshirish va malaka sertifikatini yuklash (qayta topshiruvchilar uchun).

Agar talabgor test sinovidan o'ta olmagan va qayta sinovlarda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, unga bazaviy hisoblash miqdorining 1,5 baravari miqdorida to'lov amalga oshirish uchun invoys shakllantiriladi. To'lovni Click, Payme, UPAY, Paynet kabi elektron to'lov tizimlari yoki bank kassalari orqali amalga oshirish (14 xonalik invoys raqamiga) mumkin.

Shuningdek, ular davlat tili bo'yicha malaka oshirganligi to'g'risida sertifikatni tizimga yuklaydi. Talabgor haqiqatan ham malaka oshirish kursida ishtirok etib, sertifikat olganligini tekshirish uchun uning ma'lumotlari Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markaziga yuboriladi. Markaz tomonidan talabgorning malaka oshirganligi tasdiqlangandan so'ng, talabgorning shaxsiy kabinetida arizasi qabul qilinganligi haqidagi ma'lumot paydo bo'ladi.

3. Test vaqtি va joyini bilish.

Talabgorlarning ro'yxatga olish jarayoni to'liq yakunlangandan so'ng, talabgorning shaxsiy kabinetida test topshirish joyi va vaqtি ko'rsatilgan ruxsatnoma shakllanadi hamda bu to'g'risida talabgorning telefon raqamiga SMS-xabar yuboriladi. Talabgor ro'yxatdan o'tish vaqtida test topshirish hududi sifatida o'zi tanlagan hududda test sinovida ishtirok etadi.

4. Test natijalarini bilish va sertifikat olish.

Test natijalari test sinovi yakunlangandan so'ng 15 kun (yopiq testlar 3 kun, ochiq testlar 15 kun) ichida e'lon qilinadi va test natijalariga ko'ra eng yuqori ballning kamida 70 foizini to'plagan shaxslarga sertifikat beriladi. Bunda talabgor sertifikatni shaxsiy kabinetni orqali elektron tarzda yuklab oladi.

Mazkur jarayonlarning barchasi Davlat test markazining maxsus platformasi va u integratsiya qilingan tizimlar orqali elektron tarzda amalga oshiriladi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNLARIDAGI DAVLAT TILI SOHASIGA OID NORMALARDAN KO'CHIRMALAR

Ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablar to'g'risida 2019-yil 23-oktyabr, O“RQ-574-son

8-moddad. Ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash va targ'ib qilish

Yozma, audio yoki vizual shaklda taqdim etilgan hamda aholi o'rtasida, ayniqsa homilador ayollar, go'daklar va kichik yoshdagi bolalarning onalari o'rtasida tarqatish uchun mo'ljallangan, go'daklar va kichik yoshdagi bolalarning ovqatlanishiga doir axborot materiallari hamda ma'rifiy materiallar davlat tilida va zarurat bo'lgan taqdirda boshqa tillarda yozilgan, shuningdek, lo'nda, to'liq hamda ishonchli axborotni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

13-moddad. Go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlarining o'roviga (idishiga) hamda ularni tamg'alashga doir talablar

davlat tilidagi va zarur bo'lgan taqdirda boshqa tillardagi yozuvlarni o'z ichiga olishi. Agar matn iste'molchi tushunmaydigan tilda bayon etilgan bo'lsa, yorliqning asl nusxasi almashtirilmagan holda, davlat tilidagi qo'shimcha yorliqdan foydalaniladi;

15-moddad. Idishchalarni va so'rg'ichchlarni tamg'alashga doir talablar

davlat tilidagi va zarur bo'lgan taqdirda boshqa tillardagi yozuvlarni o'z ichiga olishi. Agar matn iste'molchi tushunmaydigan tilda bayon etilgan bo'lsa, yorliqning asl nusxasi almashtirilmagan holda, davlat tilidagi qo'shimcha yorliqdan foydalaniladi. Bunda yozuv shakli oson o'qiladigan bo'lishi kerak.

Davlat xaridlari to‘g‘risida 2018-yil 9-aprel, O‘RQ-472-son

28-m o d d a. Davlat xaridlarining tili

Davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborot davlat tilida, shuningdek, davlat buyurtmachisining ixtiyoriga ko‘ra boshqa tillarda e’lon qilinadi va tarqatiladi.

Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida 2017-yil 7-sentyabr, O‘RQ-443-son

18-m o d d a. Huquqiy axborotni davlat organlarining rasmiy veb-saytlariga joylashtirish

Davlat organlarining rasmiy veb-saytlariga huquqiy axborot davlat tilida joylashtirilishi kerak. Rasmiy veb-saytning boshqa tillardagi shakllari ham bo‘lishi mumkin.

Investitsiya va pay fondlari to‘g‘risida 2015-yil 25-avgust, O‘RQ-392-son

7-m o d d a. Investitsiya va pay fondlarining nomi

Investitsiya fondi o‘zining to‘liq nomi davlat tilida ifodalangan va o‘z joylashgan yeri ko‘rsatilgan yumaloq muhrga ega bo‘lishi shart. Muhrda uning nomi ayni vaqtning o‘zida boshqa istalgan tilda ham ko‘rsatilishi mumkin.

Investitsiya fondi o‘zining nomi yozilgan shtamplariga va blankalariga, o‘z emblemasiga ega bo‘lishga haqli.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida 2014-yil 5-may, O‘RQ-369-son

13-m o d d a. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining rasmiy veb-saytlari

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining rasmiy veb-saytlaridagi axborot davlat tilida joylashtirilishi kerak. Rasmiy veb-sayt boshqa tillardagi shakllarga ham ega bo‘lishi mumkin.

**Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida 2011-yil
12-oktyabr, O‘RQ–303-son**

17-moddad. Geografik obyektlarning nomlaridan foydalanish

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan geografik obyektlar nomlarining yo‘l belgilaridagi, peshlavhalar va boshqa ko‘rsatkichlardagi yozuvlari davlat tilida ifodalanadi.

**Kredit axboroti almashinushi to‘g‘risida 2011-yil
4-oktyabr, O‘RQ-301-son**

7-moddad. Kredit byurosi

Kichik tadbirkorlik subyekti bo‘limgan kredit byurosi o‘zining firma nomi davlat tilida to‘liq yozilgan hamda joylashgan yeri ko‘rsatilgan yumaloq muhrga ega bo‘lishga haqli. Muhrda bir vaqtning o‘zida firmaning nomi boshqa istalgan tilda ham ko‘rsatilishi mumkin.

Qonunlar loyihamini tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida 2006-yil 11-oktyabr, O‘RQ-60-son

26-moddad. Qonunchilik tashabbusi huquqi subyektining qonun loyihasini Qonunchilik palatasiga kiritish to‘g‘risidagi qarori

Qonun loyihasi va unga ilova qilinadigan hujjatlar qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari tomonidan Qonunchilik palatasiga davlat tilida kiritiladi. Bir vaqtning o‘zida ularning boshqa tillardagi tarjimasi taqdim etilishi mumkin.

**Mikrokredit tashkilotlari to‘g‘risida 2006-yil
20-sentyabr, O‘RQ-53-son**

7-moddad. Mikrokredit tashkilotining firma nomi va muhri

Mikrokredit tashkiloti o‘zining firma nomi davlat tilida to‘liq yozilgan hamda joylashgan yeri ko‘rsatilgan muhriga ega bo‘lishi kerak. Muhrda ayni vaqtning o‘zida firma nomi boshqa tilda ham ko‘rsatilishi mumkin.

**Xususiy korxona to‘g‘risida 2003-yil 11-dekabr,
558-II-son**

6-moddad. Xususiy korxonaning muhri

Xususiy korxona o‘zining to‘liq firma nomi davlat tilida ifodalangan va xususiy korxonaning joylashgan yeri ko‘rsatilgan muhriga ega bo‘lishga haqli. Muhrda bir vaqtning o‘zida uning firma nomi boshqa tilda ham ko‘rsatilishi mumkin.

Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘srimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida 2001-yil 6-dekabr, 310-II-son

5-moddad. Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘srimcha mas’uliyatli jamiyatlarning huquqiy holati

Jamiyat o‘zining to‘liq firma nomi davlat tilida ifodalangan va jamiyatning joylashgan yeri ko‘rsatilgan dumaloq muhriga ega bo‘lishga haqli. Jamiyatning muhrida uning firma nomi jamiyatning tanloviga ko‘ra boshqa tillarda ham ifodalanishi mumkin.

6-moddad. Jamiyatning firma nomi va uning joylashgan manzili

Jamiyat davlat tilidagi va bir vaqtida jamiyatning ixtiyoriga bi-noan boshqa tillardagi to‘liq firma nomiga ega bo‘lishi lozim va qisqartirilgan firma nomiga ega bo‘lishga haqlidir.

**Xo'jalik shirkatlari to'g'risida 2001-yil 6-dekabr,
308-II-son**

3-m o d d a. Xo'jalik shirkati

Xo'jalik shirkati o'zining to'liq firma nomi davlat tilida ifodalangan va xo'jalik shirkatining joylashgan yeri ko'rsatilgan dumaloq muhrga ega bo'lishga haqli. Xo'jalik shirkatining muhrida uning firma nomi xo'jalik shirkatining tanloviga ko'ra boshqa tillarda ham ifodalanishi mumkin.

Reklama to'g'risida 1998-yil 25-dekabr, 723-I-son

5-m o d d a. Reklamaning tili

O'zbekiston Respublikasi hududida reklama O'zbekiston Respublikasining davlat tilida yoki reklama beruvchining xohishiga ko'ra boshqa tillarda tarqatiladi. Belgilangan tartibda ro'yxatga olingan tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari), bosma usulda terilgan bo'g'inli belgilar (logotiplar) asli qaysi tilda bo'lsa, shu tilda keltirilishi mumkin.

Notariat to'g'risida 1996-yil 26-dekabr, 343-I-son

11-m o d d a. Notarial harakatlar amalga oshiriladigan til

O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi.

Rasmiylashtirilgan hujjat matni fuqarolarning talabiga binoan notarius yoki notarial harakatlarni amalga oshiruvchi shaxs tomonidan rus tilida yoki imkon bo'lsa, boshqa maqbul tilda beriladi.

QONUNOSTI HUJJATLARDAGI DAVLAT TILI SOHASIGA OID NORMALARDAN KO'CHIRMALAR

O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo'yicha normativ hujjatlarni tasdiqlash haqida. 1999-yil 29-mart, 140-son

O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari, idoralari, korporatsiyalari, konsernlari, uyushmalari, kompaniyalari va boshqa markaziy muassasalari apparatlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo'yicha NAMUNAVIY YO'RIQNOMA

6. Hujjatlar tegishli blankalarga yoziladi. Tashkilotlarning blanklaridagi doimiy rekvizitlari davlat tilida yoziladi.

Qishloq xo'jaligi texnikasi saqlanishini yaxshilash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida. 1999-yil 29-mart, 139-son

4. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, "O'zqishloqxo'jalikta'minottuzatish" davlat-kooperativ qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari xo'jaliklar balansida qolgan texnikaning ish qobiliyatini tiklashni tashkil etsinlar, ulardan samarali foydalanilishini, hisobdan chiqarilgan mashinalarni qismlarga ajratishdan so'ng kirim qilinigan uzel va agregatlar oqilona ishlatalishini, shuningdek, texnikani ishdan tashqari davrda saqlash qoidalariiga qat'iy rioya qilinishini ta'minlasinlar.

Ushbu maqsadlarda:

ikki oy muddatda texnikadan foydalanish, uni tuzatish, unga texnika xizmati ko'rsatish va uni saqlash masalalari bo'yicha me'yoriy-texnik hujjatlarni qayta ko'rib chiqsinlar, ularning davlat tilida nashr etilishini tashkil etsinlar, mashina-traktor saroyi to'g'risidagi Nizomni, shuningdek "Qishloq xo'jaligida foydalanimagan texnikani saqlash qoidalari" davlat tarmoq standartlarini ishlab chiqsinlar va tasdiqlasinlar;

2002–2004-yillarda uy-joy fondini gazni hisobga olish priborlari bilan jihozlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2002-yil 28-mart, 99-son

Gazni hisobga olish priborlarini sotib olish, ularni kvartiralarda va yakka tartibdagi uylarda o'rnatish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risida NIZOM

8. Priborlar shkalalaridagi yozuvlar davlat tilida – o'zbek tilida bo'lishi kerak. Shkalalaridagi yozuvlar rus va ingliz tillarida bo'lgan gazni hisobga olish priborlari o'rnatilishiga yo'l qo'yiladi.

Litsenziyalashni bekor qilish hamda iste'mol tovarlarini olib kelish va O'zbekiston Respublikasining ichki bozorida sotishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2002-yil 20-avgust, 295-son

8. Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish maqsadida 2003-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi hududiga tovar yorliqlarida (etiketkalarida) O'zbekiston Respublikasining davlat tilida tovarning xususiyatlari to'g'risidagi axborot va ularni qo'llash, ulardan foydalanish bo'yicha yo'riqnomalar mavjud bo'lmanagan erkin muomalaga chiqarishga mo'ljallangan iste'mol tovarlarining ayrim turlarini olib kelish taqiplansin.

Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida. 2003-yil 31-yanvar, 54-son

Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomga 1-ilova

Transport vositalarining texnik holatini baholash uchun mo'ljallangan ishlab chiqarish-texnik baza joylashtiriladigan xona va maydonlarga doir talablar

5. Ishlab chiqarish-texnik baza hududi yoki u joylashgan tashkilotga kirish joyi oldida ishlab chiqarish-texnik bazaning ish rejimi va texnik holati, baholashdan o'tkaziladigan transport vositalarining harakatlanish sxemasi ko'rsatilgan axborotli stend o'rnatilgan bo'lishi kerak.

Ishlab chiqarish-texnik baza binosida kengligi 2,0 metrdan va balandligi 0,7 metrdan kam bo'lмаган о'lчамдаги, davlat tilida "Texnik ko'rik" yozuvi bo'lган peshlavha o'rnatilgan bo'lishi kerak. Yozuv boshqa tillarda takrorlanishi ham mumkin.

O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarini hamda O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish va sotish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida. 2003-yil 13-fevral, 75-son

O'zbekiston Respublikasida chakana savdo QOIDALARI

16. Sotuvchi, tovarlar va ularni tayyorlovchilar to'g'risidagi ma'lumotlar xaridorlar e'tiboriga davlat tilida yetkaziladi, shuningdek boshqa tillarda takrorlanishi mumkin.

121. Sotuvchi rasmiylashtirishgacha xaridorga avtomototransport vositasini sotishdan oldin tayyorlashga doir bajarilgan ishlarning sifatini, uning butlanganligini tekshirish, shuningdek, kafolat majburiyatları shartlari bilan tanishish imkonini berishi kerak. Chet elda ishlab chiqarilgan avtomototransport vositasidan foydalanishga doir amaliy qo'llanma davlat tiliga qo'shimcha haq undirilmasdan tarjima qilinishi kerak.

169. Texnik jihatdan murakkab maishiy tovarlarni xaridorga berish chog'ida ayni bir vaqtida tovarni tayyorlovchi tomonidan qo'yilgan buyumlar va hujjatlar komplekti (sotish sanasi va joyi ko'rsatilgan texnik asbob yoki uning o'rnini bosadigan hujjat, ishlatish bo'yicha yo'riqnomalar va boshqa hujjatlar) ham beriladi. Chet elda ishlab chiqarilgan tovarlarning ishlatish bo'yicha yo'riqnomasi va boshqa hujjatlari xaridorga davlat tilida taqdim etiladi. Bunda ularning tarjimasi uchun xarajat xaridorlardan undirilmaydi. Xaridorga tovar bilan birga ushbu Qoidalarning 164-bandida ko'rsatilgan ma'lumotlardan iborat bo'lgan tovar cheki ham beriladi.

164. Tovar bilan birgalikda xaridorga tovar cheki beriladi, unda tovar va sotuvchining nomi, sotilgan sana, tovarning artikuli, sorti va narxi ko'rsatiladi, shuningdek sotuvni bevosita amalga oshirilgan shaxsning imzosi qo'yiladi.

O‘zbekiston Respublikasida umumiyligi ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarni) ishlab chiqarish va sotish QOIDALARI

7. Xorijiy sayyoohlarga xizmat ko‘rsatuvchi umumiy ovqatlanish korxonalari shtatida o‘z vazifalarini bajarishi uchun zarur bo‘lgan hajmda kamida bitta xorijiy tilni (ingliz, nemis, fransuz tilini) biladigan xodimlar (metrdotellar, ofitsiantlar) bo‘lishi kerak. Ushbu korxonalarda firma jildlarida, davlat tilida va xorijiy tillarda yozilgan taomnoma bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank boshqaruvi-ning qarori

Tijorat banklari tomonidan bank kartalarini chiqarish va ularni O‘zbekiston Respublikasida muomalada bo‘lishi tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida. 2004-yil 21-fevral, 4/20-son

Tijorat banklari tomonidan bank kartalarini chiqarish va ularning O‘zbekiston Respublikasida muomalada bo‘lishi tartibi to‘g‘risidagi NIZOM

11. Majburiy rekvizitlar bank kartasiga davlat tilida kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi ommaviy axborot vositalari vakillarini davlat hokimiyati organlari huzurida akkreditatsiya qilish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida. 2006-yil 23-noyabr, 243-son

O‘zbekiston Respublikasi ommaviy axborot vositalari vakillarini davlat hokimiyati organlari huzurida akkreditatsiya qilish tartibini to‘g‘risida NIZOM

17. Akkreditatsiyaga taalluqli barcha hujjatlar (buyurtmanomalar, qarorlar, dalolatnomalar, akkreditatsiya qilish to‘g‘risidagi gubernoma va shu kabilar) davlat tilida rasmiylashtiriladi.

Internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasining hukumat portaliga axborotlarni taqdim etish va joylashtirish tartibi to‘g‘risida. 2009-yil 21-aprel, 116-son

Internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portaliga joylashtirish uchun davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyyati organlari tomonidan axborotlarni taqdim etish tartibi to‘g‘risida NAMUNAVIY NIZOM

6. Portalga joylashtirish uchun taqdim etiladigan axborot O‘zbekiston Respublikasining davlat tilida taqdim etilishi kerak. Shu bilan birga, axborotlarning rus va ingliz tillaridagi, shuningdek, boshqa tillardagi mazmuni bir xil yoxud qisqartirilgan versiyalari bo‘lishi mumkin.

Internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portaliga joylashtirish uchun Vazirlar Mahkamasi Ijro etuvchi apparatining tarkibiy bo‘linmalari tomonidan axborotlarni taqdim etish tartibi to‘g‘risida NIZOM

5. Portalda joylashtirish uchun taqdim etiladigan axborot O‘zbekiston Respublikasining davlat tilida taqdim etilishi kerak. Shu bilan birga, axborotlarning rus va ingliz tillaridagi, shuningdek, boshqa tillardagi mazmuni bir xil bo‘lishi yoxud qisqartirilgan versiyalari bo‘lishi mumkin.

“Bankrotlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida nazarda tutilgan ma’lumotlarni e’lon qilishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida 2009-yil 11-iyun, 160-son

2. Belgilab qo‘yilsinki, rasmiy nashr:

O‘zbekiston Respublikasining butun hududida kamida 5000 nusxada tarqatiladi va bankrotlik to‘g‘risidagi ma’lumotlarning har haftada e’lon qilinishini ta’minlaydi. Bankrotlik to‘g‘risidagi ma’lumotlar matnlari davlat tilida e’lon qilinadi va boshqa tillarga tarjima qilinishi mumkin;

Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimi-yati organlari xodimlarining malakasi va ko'nikmalarini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar hamda ularni ishda kompyuter texnikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida. 2011-yil 27-oktyabr, 289-son

Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimi-yati organlari xodimlarining ishda kompyuter texnikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha mala-kasini oshirishga qo'yiladigan DAVLAT TALABLARI

13. O'quv dasturlari:

tashkilot xodimlari uchun ular ishining barcha xususiyatlari va o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda maxsus ishlab chiqilgan;

hujjatlardan boshlab kompyuter texnikasi va AKTdan foydalanishning texnik jihatlarigacha bo'lgan ishlarning barcha tomonlarini qamrab oladigan, to'la qimmatli;

qisqa va aniq mazmunli, tushunarli va o'qimishli bo'lgan;

AKTni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari to'g'risidagi axborotlarga ega bo'lgan;

mamlakatimiz va xalqaro tajriba asosidagi amaliy misollarga ega bo'lgan;

davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda (rus, ingliz va boshqa tillarda) tayyorlangan o'quv materiallariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transportida yo'lovchilar, bagaj va yuk bagaj tashish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida. 2012-yil 13-aprel, 109-son

O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transportida yo'lovchilar, bagaj va yuk bagaj tashish QOIDALARI

18. Tashuvchining xodimi yo'lovchilar, bagaj, yuk bagaji jo'natuvchilari va qabul qiluvchilariga nisbatan xushmuomala va iltifotli bo'lishi, ularga g'amxo'rlik va e'tibor ko'rsatishi, temir yo'l transporti xodimlaridan qay birining aybi bilan sodir etilganidan qat'iy nazar, yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishda yo'l qo'ygan nuqsonlarni bartaraf etish choralarini ko'rishlari kerak.

Ko'rsatilgan ma'lumotlar yo'lovchilar, bagaj, yuk bagaj jo'natuvchilar va qabul qiluvchilar, yuk jo'natuvchilar, yuk qabul qiluvchilarga temir yo'l stansiyalari, temir yo'l vokzallari, poyezdlar va boshqa xizmat ko'rsatish joylarida davlat tilida, shuningdek, mahalliy aholi manfaatlaridan kelib chiqqan holda boshqa tillarda ham taqdim qilinishi mumkin (qulay va ko'rinarli joylarda), bunday sharoit bo'limgan taqdirda, foydalanuvchilarning birinchi talabiga binoan taqdim qilinishi kerak.

**Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida.
2012-yil 28-avgust, 253-son**

O'zbekiston Respublikasi bozorlarida savdo faoliyatini tashkil etish QOIDALARI

11. Bozorda quyidagilar bo'lishi kerak:

asfaltlangan (chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar sotish bozoridan tashqari), yaxshi yoritilgan, yondosh hududdan to'siq bilan ajratilgan savdo maydoni;

bozorda ish vaqtি tugagandan keyin yopiladigan kirish va chiqish joylari;

bozorning nomi, ixtisoslashuvi va ish tartibi ko'rsatilgan holda davlat tilida rasmiylashtirilgan peshlavha;

41. Bozor ma'muriyati quyidagilarni tashkil etishi shart:

bozor hududida savdoni amalga oshirish shart-sharoitlariga oid davlat tilida yozilgan plakatlar, tushuntirish jadvallarini bir martalik yig'im, ijara to'lovi stavkalarini, shuningdek, ko'rsatiladigan majburiy va boshqa xizmatlar ro'yxati va qiymatini qayd etgan holda, ko'rinarli joyga joylashtirish;

O'zbekiston Respublikasida savdo komplekslari faoliyatini tashkil etish QOIDALARI

10. Savdo kompleksida quyidagilar bo'lishi kerak:

uning ish vaqtি tugagandan keyin yopiladigan kirish va chiqish joylari;

savdo kompleksining nomi, ixtisoslashuvi va ish tartibi ko'rsatilgan, davlat tilida rasmiylashtirilgan peshlavha;

35. Savdo kompleksi ma'muriyati ijara to'lovini hamda ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lovni undirishning barcha sotuvchilar uchun qulay shart-sharoitlari yaratilishi uchun javob beradi.

Savdo kompleksi ma'muriyati quyidagilarni tashkil etishga majbur:

savdo kompleksi hududida savdoni amalga oshirish shart-sharoitlari bo'yicha davlat tilida ijara to'lovi miqdorlari va ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati ko'rsatilgan plakatlarni, tushuntirish jadvallarini ko'rinarli joyga joylashtirish;

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida. 2012-yil 25-sentyabr, 274сон

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risida NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom «Davlat statistikasi to'g'risida», «Axborot-lashtirish to'g'risida», «Elektron hujjat aylanishi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrining (keyingi o'rnlarda KTYADR deb ataladi) axborot fondini tashkil etish maqsadini, yuritish tartibini va uning mazmunini belgilaydi.

2. KTYADR davlat tilida yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasiga iste'mol tovarlari olib kirishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2013-yil 13-may, 127-son

1. Ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan 2013-yil 1-iyuldan boshlab davlat tilida markirovka qilinishi shart bo'lgan import qilinadigan iste'mol tovarlarining ayrim turlari ro'yxati 1- ilovaga* muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki, ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan davlat tilida majburiy tartibda markirovka qilinadigan:

2013-yil 1-iyulgacha "vaqtincha saqlash" bojxona rejimiga joylashtirilgan va 2013-yil 1-iyuldan keyin erkin muomalaga

chiqarilgan iste'mol tovarlari davlat tilida markirovka qilinmasdan chakana savdo tarmog'ida 2014-yil 1-yanvargacha sotilishi mumkin;

2013-yil 1-iyulgacha O'zbekiston Respublikasi hududida erkin muomalaga chiqarilgan iste'mol tovarlari davlat tilida markirovka qilinmasdan chakana savdo tarmog'ida 2014-yil 1-yanvargacha sotilishi mumkin;

O'zbekiston Respublikasi hududida davlat tilida markirovka qilingan va 2013-yil 1-iyulgacha O'zbekiston Respublikasi hududida erkin muomalaga chiqarilgan iste'mol tovarlari davlat tilidagi ushbu markirovka bilan chakana savdo tarmog'ida 2014-yil 1-yanvargacha sotilishi mumkin.

3. Majburiy tartibda davlat tilida markirovka qilinishi shart bo'lган, import qilinadigan iste'mol tovarlarining ayrim turlari markirovka qilinmasdan O'zbekiston Respublikasi hududida sotilishi taqiqlansin.

Majburiy tartibda davlat tilida markirovka qilinishi shart bo'lган, import qilinadigan iste'mol tovarlarining ayrim turlari markirovka qilinmasdan sotilishi hollariga, qonun hujjatlariga muvofiq choralar ko'rilgan holda, savdo qoidalarini buzish (hujjatlari mavjud bo'lмаган tovarlarni sotish) sifatida qaralsin.

4. Belgilab qo'yilsinki, iste'mol tovarlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan majburiy tartibda davlat tilida markirovka qilishga doir talablar aholiga sotish uchun mo'ljallanmagan hamda:

yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o'z ehtiyojlari uchun olib kirilayotgan va ishlab chiqarish yoki boshqa tijorat faoliyati uchun mo'ljallanmagan iste'mol tovarlariga;

xorijiy davlatlarning O'zbekiston Respublikasidagi diplomatik va konsullik vakolatxonalari, xalqaro va Hukumatlararo tashkilotlar, xorijiy davlatlarning ushbu tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalari hamda boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan rasmiy tarzda (xizmat doirasida) foydalanish uchun, shuningdek ularning xodimlari uchun olib kirilayotgan iste'mol tovarlariga;

ko'rgazma namunalari, sinovlar, tadqiqotlar va marketing uchun namuna sifatida olib kirilayotgan iste'mol tovarlariga tatbiq etilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish holatini baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2013-yil 31-dekabr, 355-son

Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 31-dekabrdagi 355-son qaroriga 3-ilova

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyyati organlarining rasmiy veb-saytiga qo‘yiladigan ASOSIY TALABLAR

8. Rasmiy veb-saytdagi axborotlar davlat tilida taqdim etilishi kerak. Rasmiy veb-sayt axborotlari boshqa tillardagi versiyaga ega bo‘lishi mumkin.

Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2014-yil 20-yanvar, 10-son

O‘zbekiston Respublikasi hududida diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida NIZOM

3. O‘zbekiston Respublikasi hududida diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish faqat davlat dinshunoslik ekspertizasi o‘tkazilganidan keyin amalga oshiriladi.

Diniy mazmundagi materiallarda materiallarning to‘liq nomlanishi, mazmuni, muallifi, tayyorlovchisi, tayyorlangan sanasi va joyi, adadi va boshqa ma‘lumotlar davlat tilida ko‘rsatilishi shart.

Import qilinadigan iste’mol tovarlarining ayrim turlarini markirovka qilish va bojxonada rasmiylashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida. 2014-yil 5-fevral, 22-son

1. Ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan davlat tilida markirovka qilinishi shart bo‘lgan import qilinadigan iste’mol tovarlarining ayrim turlarini markirovka qilish va bojxonada rasmiylashtirish qoidalari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilab qo‘yilsinki, iste’mol upakovkasiga (idishiga) ega bo‘lgan dori vositalarini (TIF TN bo‘yicha kodi 3004) import qilish davlat tilida majburiy markirovka qilingan holda amalga oshiriladi.

Import qilinadigan dori vositalarini markirovka qilish iste'mol upakovkasiga (idishiga) iste'molchi uchun davlat tilidagi axborotni qistirma varqa shaklida joylashtirish yo'li bilan, upakovkasida qo'shimcha markirovkasiz amalgalash oshiriladi. Ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan qo'yiladigan davlat tilidagi markirovkasi mavjud bo'limgan taqdirda import qilinayotgan dori vositalarini ular O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilgandan keyin, bojxona omborida saqlash vaqtida, guruhli upakovkaga davlat tilidagi qistirmalarining tegishli birliklarini joylashtirish yo'li bilan markirovka qilishga yo'l qo'yiladi.

Dori vositalari markirovkasining davlat tilidagi matni O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Dori-darmonlar va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish bosh boshqarmasi tomonidan tasdiqlanadi.

Ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan davlat tilida markirovka qilinishi shart bo'lgan import qilinadigan iste'mol tovarlarining ayrim turlarini markirovka qilish va bojxonada rasmiylashtirish QOIDALARI

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Qoidalar "Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini yanada oshirish va tovarlarni respublikaga noqonuniy olib kirishga qarshi kurashni kuchaytirish to'g'risida" 2013-yil 29-yanvardagi PQ-1913-sodan qaroriga muvofiq ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan davlat tilida markirovka qilinishi shart bo'lgan import qilinadigan iste'mol tovarlarining ayrim turlarini markirovka qilish va bojxonada rasmiylashtirish shartlarini belgilaydi.

2. Ushbu Qoidalarda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

birkä – og'irligini, borish joyini, tayyorlanishini, tarkibini, egasini yoki boshqa ma'lumotlarni belgilash uchun tovarni ishlab chiqarish vaqtida qo'yiladigan yozuv yozilgan (qog'oz, yog'och, karton, charm, metall va boshqalardan tayyorlangan) plastinka;

leybl – ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan ip yoki tasma yordamida tovarga mahkamlanadigan, yozuv yozilgan yorliq;

markirovka – import qilinadigan tovarning iste'mol upakovkasidagi va (yoki) idishdagi matn, rasmlar yoki ma'lumot beruvchi belgilar;

stiker – etiketka yoki upakovkaga kirmagan qo'shimcha ma'lumotlarni joylashtirish uchun xizmat qiladigan maxsus yelim qatlamlı etiketka;

idish – o'zida mahsulotni joylashtirish uchun buyumni ifodaydigan upakovkaning asosiy elementi;

transport idishi – mustaqil transport birligini hosil qiluvchi idish;

upakovka – mahsulotni shikastlanish va nobudgarchilikdan, atrof muhitni ifloslanishdan himoya qilishni ta'minlaydigan vosita yoki vositalar majmui, shuningdek mahsulotning aylanish jarayoni;

iste'mol upakovkasi – transport idishi funksiyasini bajar-maydigan, iste'molchiga mahsulot bilan birgalikda tushgan idish;

etiketka – tovari ishlab chiqarishda ishlab chiqaruvchi kor-xonaning savdo markasi, nomi, ishlab chiqarilgan sanasi, yaroqlilik muddati va (yoki) tovar to'g'risidagi boshqa ma'lumotlar ko'rsatilgan holda unga yopishtirilgan chizmali va matnli belgi;

formulyar, pasport – tovar to'g'risidagi ma'lumotlar yoziladigan varaq (daftari).

II. Davlat tilida markirovka qilinishi majburiy bo'lgan iste'mol tovarlarini markirovka qilish shartlari

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasiga iste'mol tovarlari olib kirishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2013-yil 13-maydagi 127-sun qaroriga 1-ilovaga kiritilgan hamda tovarning bir qismi bo'lgan va uning qiymatga kiruvchi iste'mol upakovkasida bevosita chakana savdoga tushadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan davlat tilida markirovka qilinishi shart. Iste'molda bo'lgan tovarlarni markirovka qilish ushbu Qoidalarga muvofiq umumiy asoslarda amalga oshiriladi.

4. Quyidagilar:

yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o'z ehtiyojlari uchun olib kirilayotgan va ishlab chiqarish yoki boshqa tijorat faoliyati uchun mo'ljallanmagan tovarlar;

xorijiy davlatlarning O‘zbekiston Respublikasidagi diplomatik va konsullik vakolatxonalarini, xalqaro va hukumatlararo tashkilotlar, xorijiy davlatlarning ushbu tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalarini va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan rasmiy tarzda (xizmat doirasida) foydalanish uchun, shuningdek ularning xodimlari uchun olib kiriladigan tovarlar;

ko‘rgazma namunalari, sinash, tatbiq etish va marketing uchun namunalar sifatidagi tovarlar ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan davlat tilida majburiy markirovka qilinmaydi.

5. Davlat tilidagi markirovkaning mahsulotga standartlashtirish bo‘yicha normativ hujjatlar talablariga muvofiqligi sertifikatlashtirish bo‘yicha akkreditatsiya qilingan organlar tomonidan amalgga oshiriladi.

6. Davlat tilidagi markirovka ushbu Qoidalarga ilova talablariga muvofiq iste’molchi uchun to‘liq va ishonchli bo‘lishi kerak.

7. Tovarning asosiy iste’mol xususiyatlari va tavsifi, shuningdek ishlab chiqaruvchi korxonaning markirovkasidagi boshqa ma’lumotlar ushbu Qoidalarga ilovaga* muvofiq markirovkada davlat tilida ko‘rsatilishi kerak.

* *Qoidalarga ilova rus tilidagi matnda berilgan.*

8. Quyidagilarga:

davlat tilidagi markirovkaga ishlab chiqaruvchi korxonaning boshqa tillardagi markirovkasida mavjud bo‘lmagan qo‘srimcha ma’lumotlar kiritilishiga;

davlat tilidagi markirovkada bayon qilingan ma’lumotlarning boshqa tillardagi ishlab chiqaruvchi korxonaning markirovkasiga muvofiqligini tahlil qilish imkonini bermaydigan ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan qo‘ylgan markirovka yuzasiga tovarning upakovkasiga stikerni yelimalash usuli bilan tovari davlat tilida markirovka qilishga yo‘l qo‘ymaydi.

9. Ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan davlat tilida markirovka qilinishi shart bo‘lgan import qilinadigan iste’mol tovarlarining ayrim turlarini markirovka qilish ushbu Qoidalarga ilovaga muvofiq amalgga oshiriladi.

III. Davlat tilida majburiy markirovka qilinadigan iste’mol tovarlarini bojxonada rasmiylashtirish xususiyatlari

10. Import qiluvchi davlat tilida markirovka qilinishi shart

bo‘lgan tovar O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilgunga qadar import qilish yuzasidan o‘zi tuzadigan kontrakt shartlarida tovarni davlat tilida markirovka qilish talabini nazarda tutishi kerak.

11. Tovarni “erkin muomala (import) uchun chiqarish” bojxona rejimida rasmiylashtirish uni tovardagi markirovka bilan tanlab solishtirgandan keyin bojxona organlari xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

12. Davlat tilida markirovka qilinishi shart bo‘lgan olib kirilgan tovarlar davlat tilida markirovka qilinmagan shaklda “erkin muomala (import) uchun chiqarish” bojxona rejimida bojxonada rasmiylashtirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

13. Erkin industrial (iqtisodiy) zonaga olib kiriladigan tovarlar “erkin muomala (import) uchun chiqarish” bojxona rejimida rasmiylashtirilgan hollarda davlat tilida markirovka qilinadi.

IV. Yakunlovchi qoidalar

14. Tovarning davlat tilidagi markirovkasi matnining to‘liqligi va to‘g‘riliqi uchun import qiluvchi va sertifikatlashtirish bo‘yicha akkreditatsiya qilingan organlar javob beradi.

15. Bojxona organlari tomonidan ushbu Qoidalarga ilovada ko‘rsatilmagan davlat tilidagi markirovkadagi ma’lumotlar talab qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

16. Ushbu Qoidalar talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

“Garov reyestri to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida 2014-yil 12-iyun, 155-son

Garov reyestrini yuritish tartibi to‘g‘risida NIZOM

4. Garov reyestri davlat tilida yuritiladi. Shuningdek, rus va ingliz tillarida garov reyestrini yuritishga ruxsat beriladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruva tizimi mini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2014-yil 2-iyul, 176-son

*Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ veb-saytlariga
qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida NIZOM*

8. Jamiyatning korporativ veb-saytidagi axborot davlat tilida taqdim etilishi kerak. Jamiyat korporativ veb-saytining boshqa tillardagi versiyalari bo‘lishi mumkin.

Davlat kadastrlari yagona tizimiga tegishli davlat kadastrlari ma'lumotlarining tarkibi va ularni taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida. 2014-yil 12-sentyabr, 12-son

Davlat kadastrlari yagona tizimiga tegishli davlat kadastrlari ma'lumotlarining tarkibi va ularni taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi NIZOM

11. DKYAT GATga tegishli tematik qatlamlarning atributiv ma'lumotlari davlat tilida yuritiladi.

geografik axborot tizimi (geoaxborot tizimi) (bundan buyon matnda GAT deb yuritiladi) – geografik obyektlar to‘g‘risidagi ma'lumotlarni to‘plash, qayta ishslash, tahlil qilish, modellashtirish va aks ettirish, shuningdek, raqamli kartografik, o‘xshash va matnli axborotdan foydalangan holda umumdavlat (tarmoqlararo) yoki tarmoq ahamiyatiga molik axborot va hisob-kitob vazifalarini hal etish uchun mo‘ljallangan avtomatlashtirilgan tizim;

Davlat kadastrlari yagona tizimining GAT (bundan buyon matnda DKYAT GAT deb yuritiladi) – Davlat kadastrlari yagona tizimi masalalarini yechish uchun mo‘ljallangan ixtisoslashtirilgan GAT;

Davlat xizmatlari ko‘rsatish hamda davlat organlari va boshqa tashkilotlarning idoralararo axborot hamkorligi tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2015-yil 13-may, 120-son

Davlat xizmatlari, shakllari va blankalari yagona reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi to‘g‘risida NIZOM

5. Yagona reyestr davlat tilida shakllantiriladi va yuritiladi hamda rus va ingliz, shuningdek, boshqa tillardagi teng qiymatli yoki qisqartirilgan versiyalariga ega bo‘lishi mumkin.

Ochiq ma'lumotlar taqdim etilishi hisobga olingan holda internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining hukumat portalini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2015-yil 7-avgust, 232сон

O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portali to'g'risida NIZOM

12. Portalda joylashtiriladigan axborot davlat tilida taqdim etilishi kerak. Portal boshqa tillardagi teng ahamiyatli yoki qisqartirilgan versiyalarga ega bo'lishi mumkin.

"Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2015-yil 14-oktyabr, 292-son

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida amalga oshirilgan muvofiqlikni baholash natijalarini O'zbekiston Respublikasida e'tirof etish tartibi to'g'risida NIZOM

24. Muvofiqlik sertifikatini, muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyani va sinovlar protokolini e'tirof etish maqsadida taqdim etiladigan hujjatlar davlat tilida yoki rus tilida bo'lishi kerak. Agar ular boshqa tillarda bayon qilingan bo'lsa, u holda hujjatlarga ishonchliligi uchun ariza beruvchi javob beradigan aynan o'xshash tarjima ilova qilinadi.

27. Metrologik nazorat natijalarini e'tirof etish uchun ariza beruvchi hujjatlarni davlat tilida yoki rus tilida taqdim etishi kerak. Agar hujjatlar boshqa tillarda bayon qilingan bo'lsa ariza beruvchi ularning davlat tilidagi yoki rus tilidagi aynan o'xshash tarjimasini qo'shimcha ravishda taqdim etishi kerak.

Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2016-yil 2-iyun, 185-son

Elektron tijoratni amalga oshirish QOIDALARI

11. Sotuvchi:

v) elektron tijoratning boshqa ishtirokchilarini o'zi to'g'risida elektron shaklda davlat tilida, zaruriyat bo'lganda esa boshqa tillardagi ishonchli axborotdan tegishli foydalanishni ta'minlashi shart, axborot quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak:

“Elektron hukumat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunini amalga oshirishni davom ettirish chora-tadbirlari haqida. 2016-yil 3-iyun, 188-son

Internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portali to‘g‘risida NIZOM

8. Portaldagi axborot O‘zbekiston Respublikasining davlat tilida taqdim etilishi kerak. Shu bilan birga, Portal axborotning rus, ingliz va boshqa tillardagi mazmunan bir xil yoki qisqartirilgan versiyalariga ega bo‘lishi mumkin.

11. Guruh quyidagilarga majbur:

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining matbuot xizmati tomonidan taqdim etilgan axborotni davlat tilida, shuningdek, mavjud bo‘lganda rus, ingliz va boshqa tillardagi mazmunan bir xil yoki qisqartirilgan versiyalarini bir kun muddatdan kechiktirmay Portalda joylashtirish;

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari ni tasdiqlash to‘g‘risida. 2016-yil 14-noyabr, 387-son

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish QOIDALARI

184. Dalolatnomalar yozuvlari ikki nusxada tuziladi.

Dalolatnomalar yozuvlarining har bir turi har yilning 1-yanvaridan 31-dekabrigacha tartib bilan ketma-ket raqamlanadi.

Dalolatnomalar yozuvlari davlat tilida lotin grafikasida tushunarli va chiroyli dastxat bilan yoki kompyuter yordamida to‘ldiriladi.

191. Dalolatnomalar yozuvlari asosida tegishli gerbli guvohnomalar davlat tilida lotin grafikasida to‘ldiriladi va ariza beruvchiga topshiriladi.

Oziq-ovqat mahsulotini tamg‘alash yuzasidan uning xavfsizligi to‘g‘risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash to‘g‘risida. 2017-yil 12-iyul, 490-son

Oziq-ovqat mahsulotini tamg‘alash yuzasidan uning xavfsizligi to‘g‘risidagi UMUMIY TEXNIK REGLAMENT

6. Oziq-ovqat mahsuloti davlat tilidagi yozuvlar tarzida tamg‘alanadi, ma’lumotlarni boshqa tillarda takrorlashga yo‘l qo‘yiladi.

Eksportga yuklab jo‘natiladigan oziq-ovqat mahsuloti import qiluvchi mamlakat tilida yozilishi mumkin.

54. Oziq-ovqat mahsulotining tayyorlovchisi (ishlab chiqaruvchisi) joylashgan joyning nomi to‘g‘risidagi ma’lumotni tayyorlovchi mamlakatning nomini davlat tilida ko‘rsatish sharti bilan oziq-ovqat mahsulotini tayyorlovchi (ishlab chiqaruvchi) joylashgan joy bo‘yicha mamlakat tilida (tillarida) ko‘rsatishga yo‘l qo‘yiladi.

“O‘zpaxtasanoat” aksiyadorlik jamiyati korxonalarida ishlab chiqarilgan paxta tolasini sotish va hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish to‘g‘risida. 2018-yil 12-fevral, 106сон

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-fevraldagi 106-son qaroriga 3-ilova

Paxta tolasini sertifikatlash va og‘irligini tortib ko‘rish to‘g‘risida NIZOM

21. ...

Muvofiqlik sertifikati davlat tilida, rus yoxud ingliz tillarida to‘ldiriladi.

Ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxslar va jabrlanuvchilarni markazlashtirilgan hisobga olish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida. 2018-yil 3-may, 322-son

Ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxslar va ma’muriy huquqbazarlik yo‘li bilan ma’naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar yetkazilgan shaxslarni markazlashtirilgan hisobga olish tartibi to‘g‘risida NIZOM

10. Hisobga olish hujjatlari va ma’lumotlar bazalari davlat tilida yuritiladi.

Tijorat banklarida jismoniy shaxslar bilan valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida. 2018-yil 28-aprel, 16/9-son

Tijorat banklarida jismoniy shaxslar bilan valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi NIZOM

15. Rezident jismoniy shaxsning yoki YATTning xalqaro to‘lov kartasi mavjud bo‘lmasganda, bank va rezident jismoniy shaxs yoki YATT o‘rtasida chet el valyutasida bank hisob varag‘ini ochish to‘g‘risida ikki tomonlama shartnomaga tuziladi hamda bank tomonidan shartnomaga asosan uning nomiga chet el valyutasida bank hisob varag‘i ochiladi.

Shartnomaning bir nusxasi rezident jismoniy shaxs yoki YATT beriladi, ikkinchi nusxasi kunlik hujjatlarga tikib qo‘yiladi. Shartnoma davlat tilida tuziladi, zarur hollarda, rus yoki qoraqalpoq tilida ham tuzilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish hamda bojxona-tarif jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2018-yil 29-iyun, PQ-3818-son

3. 2018-yil 1-sentyabrdan shunday tartib belgilansinki, unga muvofiq:

...

tovarlarning “erkin muomalaga chiqarish (import)” rejimiga bojxona rasmiylashtirushi uchun tovarlarni davlat tilida majburiy markirovka qilish talab etilmaydi. Bunda, 2020-yil 1-avgustdan boshlab Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan ro‘yxat bo‘yicha import qilinadigan iste’mol tovarlarining ayrim turlari (iste’mol qadoqlariga ega bo‘lmasgan tovarlardan tashqari) ishlab chiqaruvchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining davlat tilida (lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida) markirovka qilinmagan taqdirda, mazkur tovarlarga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish taqiqlanadi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan yerlarda daraxtlar va butalardan foydalanishni tartibga solish va ularidan foydalanish sohasida ruxsat berish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida. 2019-yil 17-yanvar, 43-son

Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan yerlarda daraxtlar va butalarni ekish, parvarish qilish, kesish hamda daraxtlarni xatlovdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida NIZOM

24. ...

Shuningdek, ushbu daraxtlarni ko‘rishga kelgan tashrif buyuruvchilar uchun ma‘lumot sifatida davlat tilida, rus va ingliz tillarida daraxtning nomi, uning yoshi, xatlov raqami, joylashgan manzili yozilgan yorliq daraxtga osib qo‘yilishi zarur.

Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibining takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida. 2019-yil 15-fevral, 136-son

Transport vositalarining texnik holatini baholash uchun mo‘ljallangan ishlab chiqarish-texnik baza joylashtiriladigan xona va maydonlarga doir talablar

5. ...

Ishlab chiqarish-texnik baza binosida kengligi 2,0 metrdan va balandligi 0,7 metrdan kam bo‘lmagan o‘lchamdagisi, davlat tilida “Texnik ko‘rik” yozuvi bo‘lgan peshlavha o‘rnatilgan bo‘lishi kerak. Yozuv boshqa tillarda takrorlanishi ham mumkin.

“O‘zstandart” agentligi huzuridagi standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida. 2019-yil 14-mart, 220-son

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 14-martdagi 220-son qaroriga 3-ilova

Respublikada xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy standartlarni va xorijiy mamlakatlarining standartlarini qabul qilish va qo‘llash tartibi to‘g‘risida NIZOM

2-bob. Xalqaro standartlarni qabul qilish

5. Xalqaro standartlar O‘zbekiston Respublikasining davlat standartlari shaklida, davlat tilida va standartning asli yozilgan tilardan birida qabul qilinadi.

3-bob. Mintaqaviy yoki davlatlararo standartlarni qabul qilish

16. Respublikada mintaqaviy standartlarni qabul qilish

standartning identifikatsiya raqamini davlat tilida va standartning asli yozilgan tillardan birida saqlangan holda bevosita qabul qilish orqali amalga oshiriladi.

4-bob. Xorijiy mamlakatlarning standartlarini qabul qilish

20. Respublikada xorijiy mamlakatlarning standartlarini qabul qilish standartning identifikatsiya raqamini davlat tilida hamda standartning asli yozilgan tillardan birida to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida. 2019-yil 22-mart, 242-son

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
REGLAMENTI

40. Vazirlar Mahkamasi hujjatlari loyihalari Hukumatga davlat tilida, zarurat bo‘lganda – rus tili va boshqa tillarga tarjima qilinib kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining norma ijodkorligi va parlament nazorati yo‘nalishidagi faoliyatini kuchaytirish hamda samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2019-yil 26-mart, 2419-III/KQ-523-III-son

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2019-yil 26-martdagи 2419-III/KQ-523-III-sonli Qo‘shma qaroriga 2-ilova

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek ularga ilova qilinadigan axborot-tahliliy materiallarni yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirishning YAGONA USLUBIYOTI

5. Loyihada quyidagilarning qo‘llanilishiga yo‘l qo‘yilmaydi:
og‘zaki nutq shakllari;
xorijiy tillarning atamalari, davlat tilida teng ma’noli so‘zlar va tushunchalar bo‘lgan taqdirda;

O‘zbekiston Respublikasi hududida mehmonxona

xizmati ko'rsatish tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida. 2019-yil 26-mart, 03-mh-son

O'zbekiston Respublikasi hududida mehmonxona xizmati ko'rsatish tartibi to'g'risidagi NAMUNAVIY NIZOM

10. Bajaruvchi va u ko'rsatadigan mehmonxona xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlar tashrif buyuruvchilarga davlat tilida hamda qo'shimcha ravishda ingliz va rus tillarida, shuningdek, bajaruvchining ixtiyoriga ko'ra boshqa xorijiy tillarda ma'lum qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida mahsulotlarni ixtiyoriy ekologik markirovkalash tizimini joriy etish to'g'risida. 2019-yil 27-may, 435-son

O'zbekiston Respublikasida mahsulotlarni ixtiyoriy ekologik markirovkalash tartibi to'g'risida NIZOM

57. Sertifikat ushbu Nizomga 6-ilovaga muvofiq davlat tilida yoki rus tilida rasmiylashtiriladi. Mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga rasmiylashtirilgan sertifikat uch yil muddatga beriladi va markirovkalashga sertifikatlar davlat reyestrida (keyingi o'rinnlarda Reyestr deb ataladi) ro'yxatga olinadi. Sertifikat Reyestriga muvofiq faqat ro'yxatdan o'tkazish raqami mavjud bo'lganda haqiqiy hisoblanadi.

Kinematografiya sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida. 2019-yil 19-avgust, 695-son

Davlat buyurtmasi asosida ishlab chiqariladigan kino mahsulotlari uchun tanlov tashkil etish va uni o'tkazish tartibi to'g'risida NIZOM

29. Materiallar davlat tilida, o'zbek tili imlo qoidalariiga amal qilgan holda tayyorlanadi.

Onlayn nazorat-kassa mashinalari va virtual kas-sa tizimi qo'llanilishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida. 2019-yil 23-noyabr, 943-son

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-noyabrdagi 943-son qaroriga 2-ilova

O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llanilishi ruxsat etilgan onlayn nazorat-kassa mashinalari, virtual kassa va fiskal modulga qo‘yiladigan TEXNIK TALABLAR

3. Onlayn-NKMga quyiladigan texnik talablar quyidagilardan iborat:

...
chek qog‘ozida aks etadigan ma’lumotlar ustun ravishda davlat tilida bo‘lishi ta’minlanishi;

Mahsulotlarni identifikasiya vositalari yordamida markirovkalash va kelgusida kuzatish tartibini bosqich-ma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2019-yil 23-noyabr, 944-son

4. Belgilansinki, tadbirdorlik subyektlarining tajriba loyihasini amalga oshirishda ixtiyorli ishtiroki ularni qonunchilikda belgilangan majburiy ravishda aksiz markalari bilan markalash hamda davlat tilida markirovka qilish tartiblariga rioya etishdan ozod etmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish hamda bojxona-tarif jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3818-son qaroriga qo‘srimcha kiritish to‘g‘risida. 2020-yil 11-fevral, PQ-4594-son

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish hamda bojxona-tarif jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3818-son qaroring 3-bandni to‘rtinchi xatboshisi quyidagi mazmundagi jumla bilan to‘ldirilsin:

“Bunda, 2020-yil 1-avgustdan boshlab Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan ro‘yxat bo‘yicha import qilinadigan iste’mol tovarlarining ayrim turlari (iste’mol qadoqlariga ega bo‘lmagan tovarlardan tashqari) ishlab chiqaruvchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining davlat tilida (lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida) markirovka qilinmagan taqdirda, mazkur tovarlarga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish taqiqlanadi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno”.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2020-yil 24-fevral, PQ-4611сон

10. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:

moliyaviy hisobotning yagona standartlarini ishlab chiqadigan va tasdiqlaydigan mustaqil xalqaro tashkilot hisoblangan Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari fondi (keyingi o‘rninda – MHXS fondi) bilan bitim tuzsin;

2020-yilda MHXS va unga tushuntirishlar matnini davlat tiliga tarjima qilish, boshqa tillarda MHXSni qo‘llash bilan bog‘liq hamda MHXS fondi yillik badallar to‘lash xarajatlarini O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti qo‘srimcha daromadlari hisobidan qoplasin, 2021-yildan boshlab esa zarur mablag‘lar ajratilishini O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetida nazarda tutsin;

O‘zbekiston Respublikasida tashqi savdo operatsiyalari monitoringini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2020-yil 14-may, 283-son

Tashqi savdo operatsiyalari amalga oshirilishi monitoringini olib borish va nazorat qilish tartibi to‘g‘risida NIZOM

4. Tashqi savdo kontraktlarida quyidagi asosiy bo‘limlar va ma’lumotlar bo‘lishi kerak:

...

1) Tashqi savdo kontraktining matni davlat tilida yoki xorijiy sherik tanlagan tilda bayon qilinishi kerak. Agar kontrakt matni boshqa tilda tuzilgan bo‘lsa, kontrakt davlat tiliga yoki xorijiy sherikning tanlagan tiliga tarjima qilinishi va belgilangan tartibda tasdiqlanishi kerak.

Alkogolsiz ichimliklarning xavfsizligi to‘g‘risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida. 2020-yil 1-iyun, 345-son

Alkogolsiz ichimliklarning xavfsizligi to‘g‘risidagi umumiy texnik reglament

49. Iste’molchilarni chalg‘itishga olib keladigan ishonchksiz ma’lumotlarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida mahsulotning tarkibi, xususiyatlari, ozuqaviy qiymati, kelib chiqishi, ishlab chiqarish va foydalanish usuli, shuningdek, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita alkogolsiz mahsulotlarning sifati va xavfsizligini tavsiylovchi boshqa ma’lumotlar davlat tilida taqdim etilishi hamda to‘liq va ishonchli bo‘lishi kerak.

Moliyaviy xizmatlar iste’molchilar bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda mikrokredit tashkilotlari va lombardlarning faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida. 2020-yil 27-iyun, 15/3-son

Moliyaviy xizmatlar iste’molchilar bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda mikrokredit tashkilotlari va lombardlarning faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar to‘g‘risidagi NIZOM

3. Kredit tashkilotining moliyaviy xizmatlari kredit tashkiloti va iste’molchi o‘rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq ko‘rsatiladi.

Shartnomalarning matni iste’molchilar tushunishi uchun aniq va sodda tarzda bayon etilishi va kompyuter vositasida bosib chiqarishda 12 o‘lchamli shriftdan kam bo‘limgan yoki shunga o‘xshash shriftni qo‘llagan holda Misrosoft Word matn redaktoridan foydalanilishi lozim.

Shartnomalarning matni davlat tilida tuziladi. Iste’molchi va kredit tashkiloti o‘zaro kelishuviga muvofiq shartnoma matni boshqa tilda ham tuzilishi mumkin.

8. Kredit tashkiloti tomonidan iste’molchilarga kredit tashkilotining moliyaviy xizmatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar davlat tilida yetkazilishi lozim. Bunda kredit tashkiloti moliyaviy xizmatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni boshqa tillarda ham taqdim etishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2020-yil 10-iyul, 433-son

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyuldaggi 433-son qaroriga 3-ilova

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashtirish bo‘yicha xizmatlarni ko‘rsatish tartibi to‘g‘risida NIZOM

13. Bajaruvchi va u ko‘rsatadigan mehmonxona xizmatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar tashrif buyuruvchilarga davlat tilida hamda qo‘srimcha ravishda ingliz va rus tillarida, shuningdek, bajaruvchining ixtiyoriga ko‘ra boshqa tillarda ma’lum qilinadi.

Elektron hukumat tizimini yanada rivojlantirish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining o‘z faoliyati bo‘yicha jamoatchilik oldida elektron hisobot berishi tartibini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2020-yil 16-iyul, 444-son

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 16-iyuldaggi 444-son qaroriga 2-ilova

Elektron hukumatning ma’lumotnomalar va klassifikatorlar registrini shakllantirish va yuritish hamda yagona identifikatorlardan foydalanish tartibi to‘g‘risida NIZOM

26. Registrda joylashtirilgan ma’lumotnomalar va klassifikatorlar davlat tilida taqdim etilishi kerak. Registrda ma’lumotnomalar va klassifikatorlarning boshqa tillarda ekvivalent yoki qisqartirilgan versiyalari bo‘lishi mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 16-iyuldaggi 444-son qaroriga 5-ilova

Davlat organlari va tashkilotlarining o‘z faoliyati yuzasidan jamoatchilik oldida elektron hisobot berishi tartibi to‘g‘risida NIZOM

9. Hisobot davlat tilida taqdim etilishi kerak, bunda hisobotlar davlat tili bilan birgalikda boshqa tillardagi versiyalarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Bolalar o‘yinchoqlarining xavfsizligi to‘g‘risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida. 2020-yil 23-iyul, 451-son

Bolalar o‘yinchoqlarining xavfsizligi to‘g‘risida umumiy texnik reglament

27. Bolalar o‘yinchoqlari jamlanmasi bilan birga taqdim qilinadigan tamg‘alash va texnik hujjatlar davlat tilida, eksport uchun mo‘ljallangan o‘yinchoqlar esa eksport qilinayotgan davlat qonunchiligi talablariga mos bo‘lgan holda tayyorlanadi.

2-QISM.

O'ZBEK TILI VA LOTIN YOZUVIGA OID MUHIM MA'LUMOTLAR

Davlat xizmatida faoliyat yuritishda savodli va imloviy xatolar-siz matn yozish juda muhim. Bunda bazaviy bilimlar va manbalar zarur.

Xatosiz matn yozish uchun quyidagi manbalar kerak:

1. O'zbek tilining imlo lug'ati (so'zlarni to'g'ri yozish uchun).
2. O'zbek tilining izohli lug'ati (so'zlarni og'zaki va yozma nutqda to'g'ri qo'llash uchun).
3. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari.
4. O'zbek tilining punktuatsiya qoidalari (tinish belgilarini to'g'ri qo'llash uchun).
5. Turli tarjima lug'atlar.
6. Sohaviy atamalar lug'atlari.


Imlo lug'atlari. O'zbek tilida so'zlarning to'g'ri yozilishi matning to'g'ri tushunilishi uchun asosiy shartdir. O'zbek tilida so'nggi 30 yilda bir qancha imlo lug'atlari chiqqan. Ammo ta'kidlash joizki, hozirgi kunda imlo lug'atlari orasida ayrim so'zlar imlosida farqlilik kuzatiladi. Ushbu masalaning yechimi borasida zamonaviy tilshunosligimiz ishlayotgan bir davrda adliya organlari va muassasalarida qaysi imlo lug'atidan foydalanish kerak degan savol tug'ilishi tabiy. Bu o'rinda O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tomonidan tayyorlangan va 2013-yil chop etilgan "O'zbek tilining imlo lug'ati"dan (kirill va lotin alif-bolarida) foydalanish tavsiya etiladi. Chunki ushbu lug'at so'zlik jihatidan eng boy (85 000 so'z va so'zshakl) hamda vakolatli organ – Institutning ilmiy ken-gashi tomonidan ma'qullangan va nashrga tavsiya etilgan.



O'zbek tilining izohli lug'ati. Izohli lug'atlar borasida masala imlo lug'atlariga nisbatan aniqroq. Shu paytgacha o'zbek tilining izohli lug'ati 3-marta nashr qilingan (1982, 2005, 2020-yillar) bo'lib, ular bir-biridan asosan tarkibidagi so'zligi, ya'ni so'z va so'zshakllar soni bilan farq qiladi, xolos. 2005-yilda chop etilgan 80 ming so'zga yaqin so'zlikka ega lug'atning pdf versiyasini quyidagi manzildan yuklab olish mumkin.

<https://ziyouz.uz/durdona-toplamlar/uzbek-tilining-izohli-lugati/>

2020-yilda 5 tomlik "O'zbek tilining izohli lug'ati" qayta nashr etildi.



O'ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI

O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari 1995-yil 24-avgust kuni Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan bo'lib, uni quyidagi manzildan ko'rish mumkin.

<https://lex.uz/docs/1625271>

Faqat ushbu imlo qoidalari lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi uchun tasdiqlangan bo'lib, kirill yozuvidagi matnlarda farqli

jihatlar mavjud. Kirill yozuvida imlo qoidalari 1956-yilda tasdiqlangan va hamon o'zgarish kiritilmagan holda amalda.

O'ZBEK TILI PUNKTUATSIYASINING ASOSIY QOIDALARI

Nuqta (•)

Nuqta – eng ko'p qo'llanadigan va eng qadimiy tinish belgilaridan biri; 11-asrda arab matnlarida yozuv belgisi sifatida paydo bo'lgan, 19-asrgacha uning vazifasi va qo'llanishi hozirgi ayni tinish belgisinikidan tamomila farq qilgan.

Hozirgi o'zbek imlosida nuqta quyidagi o'rnlarda qo'llanadi:

- 1) darak gaplar oxirida (*Quyosh hamma yoqni qizdirmoqda*);
- 2) orzu-istik, iltimos, yalinish, da'vat, undash, maslahat, ogohlantirish kabi mazmunni ifodalovchi buyruq gaplar oxirida (*Bugun ertaroq boring. Bizga ovqat keltirsangiz. Mayli, o'qing bo'lmasa, hamma eshitsin.*);
- 3) bosh harflar yoki bo'g'inlar bilan ko'rsatilgan shartli qisqartmalardan so'ng (*S. Rahimov; M. T. Oybek; va boshq.*); abbreviaturalarda nuqta qo'yilmaydi;
- 4) raqamlar yoki harflar bilan ko'rsatilgan numerativlardan so'ng (1. A. 2. V. kabi. Bunda numerativdan keyin keladigan gaplar mustaqillikka ega bo'lishi shart, mustaqillikka ega bo'lмаган gaplar 1) a; 2) b shaklida yoziladi;
- 5) ba'zan sanalar raqam bilan yozilganda, yil, oy, kunlarni o'zaro ajratish uchun ular orasiga qo'yiladi (2003-yil 19-okt.); 2000.14. 2000.14.V I I I. (2000-yil 14-avgust) va h.k.

So'roq belgisi (?)

So'roq belgisi – gap oxirida qo'llanadigan tinish belgilaridan. Bu belgi asosan mazmunidan so'roq anglashilgan gaplar oxiriga qo'yiladi va shu gapning ifoda maqsadiga ko'ra so'roq ekanligini ko'rsatadi (Nega kelmadining? Qo'rqedingmi?). Bu belgi o'zbek tiliga 19-asr oxirlarida rus tilidan kirgan. "Turkiston viloyatining gazeti" sahifalarida ayrim matnlarda qo'llana boshlagan.

So'roq belgisi o'zbek adabiy tilida quyidagicha qo'llanadi:

1. Sof so'roq gaplar (sodda yoki qo'shma) oxiriga qo'yiladi. Bunday gaplar tarkibida so'roqni bildiruvchi so'roq olmoshlari va

so‘roq yuklamalari ishtirok etishi (*Shahardan qachon kelding? Kimni ko‘rding? Sog‘ligi yaxshimi? Botir-chi?*) yoki ishtirok etmasligi mumkin. Keyingi holatda so‘roq ma’nosi yozuvda so‘roq belgisi bilan, og‘zaki nutqda ohang bilan ifodalanadi (*Soat besh bo‘ldi. – Soat besh bo‘ldi?*).

2. Taqrizlarda, iqtiboslarda biron so‘z yoki jumla noaniq bo‘lsa, xato qo‘llansa, gumon va anglashilmovchilikni bildirsa, o‘sha so‘z yoki jumladan so‘ng qavsga o‘ragan holda (?) qo‘yiladi. Ba’zan jumladagi xato juda qo‘pol bo‘lsa, so‘roq belgisi qo‘sha qo‘llanishi (??) mumkin.

3. So‘roq sarlavhalarda qo‘llanadi: *Teatr yoshlarga nima berdi? Huquqiy me’yorlarni bilasizmi?* Ritorik so‘roq gaplar oxirida ba’zan so‘roq, ba’zan so‘roq va undov belgilari qo‘sha qo‘llanadi: *Dunyoda onadan ulug‘ zot bormi?!*

Undov belgisi (!)

Undov – gap oxirida qo‘llanadigan, ikki elementli tinish belgisi (!). Yozma nutqda, ayniqsa, badiiy asarlarda turli tuyg‘ular, holatlar, har xil emotsionalliklarni ifodalashda undov belgisining roli katta. Undov, asosan, undov va buyruq gaplar oxiriga qo‘yiladi. Bunda u muayyan gapning emotsional yoki qat’iy buyruq ma’nosiga ega ekanligini, tugallanganligini, boshqa gaplardan chegaralanish nuqtasini ko‘rsatadi. Undov belgisi o‘zbek tiliga rus tili orqali kirib kelgan. U o‘zbek yozuvida 20-asrning boshidan – dastlab “Turkiston viloyatining gazeti”da 1901-yildan, keyinchalik boshqa bosma asarlarda muntazam qo‘llana boshlagan.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida Undov, asosan, quyidagi hollarda qo‘llaniladi:

1) undov gaplar oxirida (*Unsin uchun, bechora qiz uchun, bu qanday falokat, bu qanday mudhish motam! – Oybek*);

2) buyruq, tilak, orzu ma’nolarini ifodalagan gaplar oxirida (*Onangni qo‘lingda tutsang, singlingni boshingda tut! – Oybek; Fido bo‘lsin senga jon-tanim, onam!*);

3) gap boshida kelib, kuchli his-hayajon ifodalagan undalmalardan, undovlardan hamda ha va yo‘q so‘zlaridan keyin (*Jamila! Bas, tur o‘rningdan! – Hamza; Yo‘q, yo‘q! Bu og‘ir ishni bo‘ynimga ololmayman*).

Undov belgisining qo'llanishida yana bir qancha xususiy holatlar ham uchraydi.

Ko'pnuqta (...)

1. Mazmunan tugallanmagan darak gaplar oxiriga ko'pnuqta qo'yiladi: *To'yni kelasi yil qilsak qilarmiz...* (A.Qahhor) *Poyezdga bilet olib qo'ygan bo'lsak, poyezd uch soatdan keyin ketsa...* (A.Qahhor)

2. Gapdag'i turli uzilishlarni ko'rsatish uchun ko'pnuqta qo'yiladi: *Hay-hay, ukam, shundoq baobro' odam sizni ko'rgani kelsa-yu, siz xursand bo'lish o'rniga...* (A.A'zam)

3. Gap muallifining o'ylanib qolish, ikkilanish, hayajonlanish kabi holatlarini ko'rsatish uchun ko'pnuqta qo'yiladi: *O'zing tengi bolalar lager palatkalarida maza qilib uxbab yotganida, sen suv sepib, yo'lka supurishing...* *Nima desam ekan...* *Sal alam qiladi kishiga.* (O'.Hoshimov)

4. Nutqda kutilmaganda bir fikrdan boshqasiga o'tib ketishni ko'rsatish uchun gapda ayni o'tish o'rniiga ko'pnuqta qo'yiladi: *Seni siyab, erkalatib, Asta-sekin ko'kartirgan Go'zal ko'klam...* o'tib ketdi. (Cho'lpon)

5. Gapda berilgan sanoqdagi qatorni yana davom ettirish mumkinligini, uning tugamaganligini ko'rsatish uchun ko'pnuqta qo'yiladi: *Gullarning nomini juda topib qo'yishadi-da, - dedi, - tugmachagul, gulibeor, qirqog'ayni, oqqaldirg'och...* (N.Eshonqul)

6. Mazmuni aniq ochilmagan gaplardan keyin ko'pnuqta qo'yiladi va undan keyin shu mazmunni ochadigan gap keltiriladi: *1914-yil... Shu yildan o'zbek she'riyati osmonida "Cho'lpon" degan mitti yulduz charaqlay boshladi.* (N.Karimov)

7. Matnda muayyan sabab bilan uzilib qolgan fikr bayonining davom ettirilganini ko'rsatish uchun gap boshiga ko'pnuqta qo'yiladi: ...*Bolaligimni eslasam, iliq yoz kechalari ko'z oldimga keladi.* (O'.Hoshimov) ...*Bu tushning oxiri emas edi. Bu ibtidosi edi.* (N.Eshonqul)

8. Sarlavha vazifasida qo'llangan gaplardan keyin mazmun taqozosiga muvofiq ko'pnuqta qo'yiladi: *Bir yigit kuylar ekan...* (Oybek. She'r sarlavhasi) *Yoshlikni eslab...* (Oybek. She'r

*sarlavhasi) Iztirob ekan-ku muhabbat!.. (X.Do'stmuhammad.
Hikoyalar turkumining nomi.)*

Vergul (,)

Vergul (frans. vergul) – tinish belgisi(.). Eng ko‘p qo‘llanadigan tinish belgilar jumlasiga kiradi. Qo‘llanish o‘rni, shakli turli davrlarda va turli tillarga oid yozuvlarda turlicha bo‘lgan. O‘zbek tilida vergul teskari pesh, pesh, yarim turish, yarim tinish kabi nomlar bilan ham yuritilgan. Vergul dastlab qisqa pauza uchun ishlatilgan, keyinchalik uning qo‘llanish doirasi va vazifasi kengaygan.

O‘zbek tilida vergul quyidagi holatlarda ishlatiladi:

1. Uyushiq bo‘laklar va gapda takrorlangan so‘zlar bilan.

Misollar:

Sen kuychi, paxtakor, olim...

U o‘qib, yozib, tahlil qilib chiqdi.

Qani, qani, mehmonlarning qo‘liga suv quyvoringlar.

Bezovta qilib qo‘ydim, uzr, uzr.

2. Ajratilgan bo‘laklar bilan.

Misollar:

Azizga, sobiq talabaga, bu so‘z yoqmadi.

Islohotlarga biz, ya’ni yoshlar ham hissa qo‘sishimiz kerak.

3. Kiritmalar (kirish so‘zlar, kirish birikmalar va kirish gaplar) va modal so‘zlar bilan.

Misollar:

Astoydil ishlansa, shubhasiz, bu yerdan yaxshi hosil olish mumkin.

Balki bu haqda bir o‘ylab ko‘rarsiz.

4. Undalmalar va undov so‘zlar bilan.

Misollar:

Og‘ayni, bu masalaga yengil qarash yaramaydi.

Hoy, bu nima qilganingiz axir?!

5. Boshqa bo‘laklarga bog‘lanmagan so‘zlar bilan.

Misollar:

Qani, bu holatni oddiyroq tushuntirib bering-chi.

Bu savolga, xo‘sh, huquqshunos javob bera qolsin.

1. Muallif gapini ko‘chirma gapdan ajratishda.

Misollar:

– *Men bugun borolmayman, – dedi u.*

“*Men bugun borolmayman*”, dedi u.

7. Birdan ortiq ish-harakat ifodalangan sodda gaplar, birdan ortiq kesim qatnashgan qo’shma gaplarda.

Misollar:

Dadam kelgach, osh suzildi.

Gullar ochilib, atrofga anvoyi bo’ylar taraldi.

Kasbi – o’qituvchi, mutaxassisligi – matematik, ijodkorligi ham bor.

Atrof qorong‘i, lekin daraxtlar yaqqol ko’zga tashlanadi.

Achchig‘im chiqdi-yu, ammo bildirmadim.

Yo siz keling, yo men boray.

Eslatmalar:

● Undov, undalma va kirtmalar gap boshida kelganda vergul ulardan keyin, gap o’tasida kelganda har ikki yondan, gap oxirida kelganda ulardan oldin qo’yiladi.

● Qo’shma gaplar yoki uyushiq bo’laklar va, -u, -yu, hamda, yo (gapda bir marta qatnashsa) kabi teng bog‘lovchilar bilan bog‘lansa yoki sanalsa, ular orasiga vergul qo’yilmaydi.

● Vergul qavs va qo’shtirnoq bilan qo’llanganda ulardan keyin, tire bilan qo’llanganda undan oldin qo’yiladi, ko‘p nuqta bilan kelganda esa tushib qoladi.

Nuqtali vergul (;

Nuqtali vergul – ustma-ust joylashgan nuqta va verguldan tashkil topgan, ikki unsurli tinish belgilardan biri (;). O’zbekcha matnlarda 19-asr oxirlaridan qo’llana boshlagan. Hozirgi o’zbek imlosida nuqtali vergul quyidagi o’rinlarda qo’llanadi:

1) bog‘lovchisiz qo’shma ran tarkibida ma’no jihatdan bir-biriga yaqin bo’lmagan gaplar orasida. Misol: *Qalandarovning taklifi, shubhasiz, o’tmaydi; unda raisning obro’yi tushadi;*

2) gapdagisi uyushiq bo’laklar murakkab bo’lib, ular ma’lum guruhlarga ajratilganda, shu guruhlar orasida. Misollar: *Bog‘imizda shaftoli va olma; qovun va tarvuzlar pishib yotibdi. Majlisda talaba va o’qituvchilar; muhandis va farroshlar qatnashishdi;*

3) yarim qavs bilan ajratilgan raqam yoki harflardan keyingi gaplar oxirida. Misol: *Hozirgi asosiy vazifa quyidagilar: a) dars jadvalini tuzish; b) o'qituvchilarni orohlantirish; v) grafiqka rioxasi qilish va b.).*

4) murakkab (aralash) qo'shma gaplar orasida. Misollar: *Yer ko'karmas, el yashnamas, bo'lmasa ko'k tomchisi; Qaydan olsin she'rni shoir, bo'lmasa ilhomchisi (A. To'qay).*

Tire, defis

Quyida keltiriladigan qoidalarga qonun hujjatlarida ham, nufuzli kitoblar nashrida ham, ommaviy axborot vositalari maqolalarida ham ko'pincha rioxasi qilinmaydi.

Umuman olganda, chiziqchalarning o'ndan ziyod turi bor, lekin biz eng asosiy uchtasini bilib olsak, shuning o'zi yetarli bo'ladi.

1. Defis (-)

Defis – bu so'zlarni ajratish uchun ishlataladigan biz bilgan kichkina chiziqcha. Juft so'zlar, takror so'zlar orasida, ba'zi qo'shimchalar (-ku, -da, -a, -u va b.) bilan keladi. Bo'g'in ko'chirish uchun ham defis qo'llanadi. Defisning ikki tomonidan ham joy qoldirmay yoziladi.

Misol:

Oldi-berdi, uy-joy, asta-sekin, aytdim-ku, yaxshi-da.

Telefon yoki kompyuter klaviaturalarining hammasida bu belgini osongina topib olasiz.

2. Tire (katta tire) (-)

Gaplarni va gap bo'laklarini ikkiga ajratuvchi tinish belgisi. Bu belgini yana "em-desh" (ing. m-dash) ham deyishadi, chunki uning uzunligi m harfining eni bilan bir kattalikda. Tire har ikki tomonidan bo'sh joy bilan ajratib yoziladi.

Misollar:

Til – bu millat g'ururi.

Bulbul chamanni sevar, odam – vatanni.

Toshkent – Samarqand yo'naliishi.

Kompyuter klaviaturasida bu belgini chiqarish uchun, Alt tugmasini bosib turib, o'ng tarafdagagi raqamlar blokidan 0151 sonlar ketma-ketligini tering.

3. Qisqa tire (o'rtacha tire yoki raqamli tire) (-)

Inglizlardan kirib kelgan bu belgining paydo bo‘lganiga 10-15 yil bo‘ldi. Bu belgining uzunligi n harfining eni bilan teng bo‘lgani uchun “en-desh” (ing. n-dash) ham deyishadi. Nima uchun “raqamli tire” deyilishiga sabab esa uning raqamlar ko‘lamini ifodalashi uchun ishlatilishida. Avval raqamlar orasida katta tire ishlatilgan, hozirda bu kichik tirega almashtirilgan. Kichik tire ham ikki tomonidan bo‘sh joy tashlamay yoziladi.

Misol:

3–4 dona, 1941–1945-yillar, 10–15 daqiqa, 10:00–18:00.

Kompyuter klaviaturasida bu belgini chiqarish uchun, Alt tugmasini bosib turib, o‘ng tarafdagi raqamlar blokidan 0150 sonlar ketma-ketligini tering.

Quyidagi jadvalda hammasi soddaroq qilib tushuntirilgan.

Belgi nomi	Yozilishi	Qo‘llanilishi	Qo‘srimcha izoh
- Defis, chiziq-chcha	-	So‘zlar o‘rtasida, ba’zi qo‘srimchalarni ajratishda va bo‘g‘in ko‘chirishda qo‘llanadi: • <i>oldi-berdi</i> • <i>asta-sekin</i> • <i>aytdim-ku</i>	Oldin va keyin bo‘sh joy qoldirilmay yoziladi.
- Qisqa tire O‘rtacha tire Raqamli tire en-dash (n-dash)	Alt + 0150	Raqamlar oralig‘ini ifodalash uchun ishlatiladi: • <i>3–4 dona;</i> • <i>1941–1945-yillar;</i> • <i>10–15 daqiqa.</i>	Oldin va keyin bo‘sh joy qoldirmay yoziladi.
- Tire Katta tire en-dash (m-dash)	Alt + 0151	Gaplar va bo‘laklarini ajratishga xizmat qiladi: • <i>Til — bu millat g‘ururi.</i> • <i>Bulbul chamanni sevar, odam — vatanni.</i> • <i>Toshkent — Samarqand yo‘nalishi.</i>	Oldin va keyin bo‘sh joy qoldirib yoziladi.

Ikki nuqta

Ikki nuqta – tinish belgisi. Ustma-ust qo‘yiladigan ikki nuqtadan (:) iborat bo‘lib, asosan, quyidagi hollarda qo‘yiladi:

1) uyushiq bo‘laklar oldidan qo‘llanadigan umumlashtiruvchi bo‘lakdan so‘ng. Misol: *Yig‘ilib keldi butun qishloq: keksa-yu yosh, erkagu ayol;*

2) bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibidagi gaplarni ajratishni ko‘rsatish uchun. Misol: *Yakun qildim: ko‘z yoshlariga ikki bois bor ekan asli;*

3) ko‘chirma gapdan oldin qo‘llangan muallif gapidan so‘ng. Misol: *U o‘yladi: shunday vaziyatda nima qilishim kerak? va b.*

Qavs

Qavs (arab. – yoy, egilgan narsa) – o‘zbek tilida keng qo‘llanadigan, ikki elementli (qo‘shaloq), asosan, gap o‘rtasida va oxirida ishlatiladigan chegaralovchi tinish belgisi. Ochiluvchi va yopiluvchi qismlardan iborat. Dastlab u “Turkiston viloyatining gazeti”da 1873-yildan qo‘llangan, keyinchalik boshqa gazeta va jurnallarda, kitoblarda ham ishlatila boshlagan. Hozirgi yozuvda asosan 2 xil shaklda ishlatiladi: a) odatdagi qavs () asosiy me’yor hisoblanib, barcha yozuv shakllarida uchraydi; b) o‘rta qavs yoki katta qavs – [] va () – matematika, geometriya, kimyo va boshqalar fanlarda, shuningdek, qavs ichida qavs keladigan holatda uchraydi. Xususan, matematikada bu belgi amallarning bajarilishi tartibini belgilash uchun ishlatiladi. Masalan: (5,2+4,8):0,5 (oldin qavs ichidagi amal bajariladi). Qavsning yopiluvchi (ikkinchisi) qismi ba’zan yozma nutqda ketma-ket keluvchi, sanaluvchi fikrlar, ta’riflarni raqamlashda (raqam yoki harf bilan) yakka, mustaqil holda ham qo‘llanishi mumkin.

Hozirgi o‘zbek tilida quyidagilar qavsga olinadi:

a) kiritma konstruksiyalar (kiritma so‘z, kiritma birikma, kiritma gaplar);

b) remarkalar;

v) sitata yoki misollarning manbalari;

g) tushuntirish, izoh, uqtirish ma’nosidagi so‘z, birikma va gaplar, shuningdek, gazeta va jurnallardagi “davomi bor”, “boshi 3-betda” kabilar ham qavsga olinadi;

d) sitatadagi biror so‘z yoki jumлага muallifning turli munosabatini bildiruvchi so‘roq, undov belgilari, shuningdek, muallif tomonidan sitataga kiritilgan gaplar. Qavsga olingan qism asosiy gap (matn) bilan bevosita yoki bilvosita aloqador bo‘ladi.

Qo‘shtirnoq

Qo‘shtirnoq – o‘zbek tilida keng qo‘llanadigan, ko‘p (to‘rt) elementli, qo‘shaloq holda ishlatiladigan chegaralovchi tinish belgisi. Uning umumiyligi *me’yor hisoblangan grafik shakli*, “*dan iborat bo‘lib, nashriyot ishlarida* » *shaklida ham qo‘llanadi; ilmiy uslubda yakka tirnoq shaklida* (, ‘) *ishlatiladi*. Uning birinchi qismi ochiluvchi, ikkinchisi esa yopiluvchi qo‘shtirnoq deb yuritiladi. *Ushbu tinish belgisi o‘zbekcha matnlarda 1886-yildan «Turkiston viloyatining gazeti» sahifalarida qo‘llana boshlagan*.

Qo‘shtirnoq ko‘p vazifali tinish belgilaridan bo‘lib, muayyan matn qismini chegaralab ko‘rsatish bilan birga, uning matn (qo‘shtirnoqqa olingan qism kiritilgan umumiyligi matn) ga sintaktik va intonatsion jihatdan ma’lum darajada bog‘lanishini, unga muvoifiqlashuvini ham ko‘rsatadi. Qo‘shtirnoq ma’lum qismning o‘zgaligi, muayyan nutqqa yotligi (chetdan kiritilganligi), uning odatdagi ma’noda qo‘llanmaganligi va boshqalarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Qo‘shtirnoq takroriy, oddiy va murakkab holatda qo‘shaloq holda qo‘llana oladi. Bunda ochiluvchi va yopiluvchi qo‘shtirnoqlar ketma-ket qo‘llanadi; bunda ulardan birining shakli o‘zgartib qo‘llanadi.

Quyidagilar qo‘shtirnoq ichiga olinadi:

a) *so‘z, so‘z birikmasi, ibora va gap shakllarida bo‘lgan ko‘chirma (o‘zga) nutq* (q. *ko‘chirma gap*);

b) *sitatalar;*

c) *ko‘chma ma’noda qo‘llangan, qo‘llanishi odat tusiga kirmagan, eskirgan yoki yangi qo‘llanayotgan; kesatiq, piching, kinoya va b. ma’no uchun qo‘llangan so‘zlar;*

d) *badiiy asar, gaz., jur., musiqa asarlari, spektakl va boshqalarning nomlari;*

e) *muassasa, tashkilot, korxona, jamoa va shirkat xo‘jaliklari, zavod, fabrika, mehmonxona, turli (yer, suv, havodagi) transport vositalarining shartli nomlari;*

f) tarkibida “orden”, “medal” so‘zlari bo‘lgan, ammo bu so‘zlar bilan sintaktik aloqaga kirishmagan orden va medallar nomi; mahsulotlarning, o‘simgilklarning turini, mashina, samolyot, televizor kabilarning markasini bildiruvchi nomlar;

g) ichki monolog (personajlarning o‘yi, ichki kechinmalarini ang-latuvchi so‘z va gaplar);

h) sinflar, buyruqlar, qarorlarning ayrim bandlariga qo‘silib yoziladigan harflar: IX “A” sinf, 6 – “A”, sinf, 135 – “V” sonli qaror, 10-moddaning “B” bandi;

i) baho ballari (“besh”, “to‘rt” yoki “a’lo”, “yaxshi”);

j) matn ichida kelgan maqollar, hikmatli so‘zlar, sarlavhalar va boshqalar.

LOTIN ALIFBOSIGA ASOSLANGAN O‘ZBEK YOZUVIDA ISH YURITISH UCHUN MUHIM TAVSIYALAR

Hurmatli xodim!

Quyidagi tavsiyalar lotin alifbosiga asoslangan o‘zbek yozuvida ish yuritish uchun Sizga yordam beradi.

Umumiylav tavsiyalar

Alifboni bilish degani bu hali ushbu alifboda bermalol, tez, ravon o‘qish va yozish degani emas. Ayniqsa, katta hajmdagi matnlarni yozish va o‘qish o‘ziga yarasha ko‘nikmani talab qiladi. Ko‘nikmani hosil qilish uchun esa ushbu alifboden iloji boricha ko‘proq foydalanish lozim bo‘ladi.

Kuniga o‘rtacha 30 bet lotin alifbosiga asoslangan o‘zbek yozuvdagi matnni o‘qish va o‘rtacha 2 bet matn terish orqali 3 oy ichida umuman notanish bo‘lgan alifboda o‘qish va yozish malakasi shakllanishi mumkin.

Shuningdek, kirill alifbosiga asoslangan o‘zbek yozuvni bilan lotin alifbosiga asoslangan o‘zbek yozuvida imlo farqlari bor, ya’ni kirillda bir shaklda yozilgan so‘z lotinda boshqacha yozilishi, lotin alifbosida kirilldagি ayrim belgilari uchramasligi mumkin. Quyida ushbu farqli jihatlar keltiriladi.

Imlo

1. ‘**(tutuq belgisi)** – lotin alifbosi asosida shakllangan tillarda qo‘llaniladigan belgi. Bu belgi ba’zi tillarda fonetik ayirishni ifodalaydi. O‘zbek tilida ushbu belgi “tutuq belgisi” deb ataladi va o‘zbek-lotin

alifbosidagi qo'shimcha imlo belgisi hisoblanadi. O'zbek-lotin yozuvida bu belgi kirill alifbosidagi ayirish belgisi (,,") o'rnida qo'llaniladi. O'zbek lotin yozuvida tutuq belgisida ikki vazifa bor: 1) **a'lo, ba'zan, e'lon, e'tibor, e'tiqod, fe'l, ma'yus, me'mor, ne'mat, ra'y, ta'b, ta'zim, shu'la** kabi o'zlashma so'zlarda unlidan keyin kelib, shu unli tovushning cho'ziqroq aytishini ifodalaydi; 2) **in'om, mas'ul, san'at, qat'iy** kabi o'zlashma so'zlarda unlidan oldin kelib, shu unli oldingi undosh tovushdan ajratib aytishini ifodalaydi; 3) sh harfi ikki tovushni (alohida s va h tovushlarini) ifodalasa, ularning orasiga tutuq belgisi qo'yiladi: **Is'hoq, as'hob** kabi. **Mash (mash tortmoq)** so'zi bundan mustasno.

2. **Metall, kilogramm, kilovatt, kongress** kabi o'zlashma so'zlar oxirida yonma-yon kelgan undoshlar mavjud bo'lib, talaffuzda bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday so'zga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qo'shilsa, so'z oxiridagi bir harf yozilmaydi: **metall + lar = metallar, kilogramm + mi = kilogrammi** kabi.

3. Ye, Yo, Yu, Ya harflari ikki nutq tovushi: **y + e , y + o , y + a , y + u** tovushlarining birikuvidan hosil bo'ladi. Shu sababli ularni ifodalash uchun alohida harfiy belgi qabul qilinmagan. Bu harflar birikmasi o'zbekcha so'zlarda istagan bo'g'inda kelishi mumkin: so'z boshida, so'z o'rtaida, so'z oxirida. **Ye: yetti, Aliyev; Yo: yozuv, Sayyora; dunyo; Yu: buyuk; Ya: yagona, tayanch, tuya.**

4. Lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek yozuvida so'zlar, asosan, qanday talaffuz qilinsa, shunday yoziladi. Shunga ko'ra, ye tovushi ikki undosh orasida ochiq e unlisini bildiradi va shunday yoziladi: **ber, ter, kel, sher, devor kabi.**

5. Ruscha o'zlashma so'zlarda **ye, yo, yu, ya** harflarining ifodalaniishi. Ruscha o'zlashma so'zlarda mazkur to'rt harf qoida asosida ikki xil vazifada qo'llanadi: a) bu harflar so'zning boshida yoki unli tovushdan keyin kelganida ikki nutq tovushini ifodalaydi, chunonchi: **yubka, iyun, armiya, mayor, menyu, yogurt, yepiskop** so'zlaridagi kabi; b) ye, yo, yu, ya harflari ayirish belgisidan hamda ayirish belgisi vazifasida qo'llangan yurmshatish belgisidan keyin kelganida ikki nutq tovushini bildiradi, chunonchi: **adyutant – adyutant, premyera – premyera, pyesa – pyesa, atelye – atelye** so'zlaridagi kabi.

6. Kirill alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvida S ruscha o'zlashma so'zlarda qo'llanadi. U lotin alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvida s yoki ts bilan ifodalanadi. Lotin yozuvida S undoshi quyidagi hollarda "s" bilan ifodalanadi: a) so'z boshida: **sirk, sement, sentner** kabi; b) so'z o'rtasida undosh tovushdan keyin: **konstruksiya, direksiya, induksiya, deduksiya, aksent, ssenariy** kabi; v) so'z oxirida: **abzas, shpris, kvars** kabi; g) old qo'shimchadan keyin: **telesentr, antisiklon, episentr** kabi; d) so'z boshida a harfi mustaqil bo'g'in bo'lib kelganda: **aseton, asetilin, asetat** kabi. 2. So'z o'rtasida ikki unli tovush orasida "ts" yoziladi: **assimilatsiya, dissimilatsiya, kalkulatsiya, Sitseron, assotsiatsiya** kabi.

7. Familiyalar imlosi XX asr boshlariga kelib tilimizda familiyalarni ko'rsatuvchi o'zlashma qo'shimchalar paydo bo'ldi. Bular: **-ov, -ova, -yev, -yeva, -ev, -eva** qo'shimchalaridir. Ular kishi ismiga qo'shib, familiyalarни hosil qiladi. Masalan: **Yunusov, Said-ova, Rahmatullayev, Mirzayeva, Ergashev** kabilar.

Matn

1. Matnning dastlabki qismi kirish qismi bo'lib, bu qismda so'z yuritilayotgan mavzuning umumiy tavsifi, dolzarbligi bayon etiladi. Keyingi asosiy qismda muallifning mavzu doirasidagi asosiy fikri, dalillari keltiriladi. Fikr va dalillar izchillikda, ketma-ketlikda, bir necha qismlarga bo'lib ifoda etiladi. So'nggi xulosa qismi esa aytib o'tilganlarga xulosa yasash, yechim, takliflar berish asosida yaratiladi.

2. Matnning har qanday ko'rinishida dastlab umumiy ma'lumot berilib, keyin detallar haqida ma'lumot beriladi.

3. Matn yaratishda fikrlarning mantiqiy ketma-ketligi va izchilligini ta'minlash zarur.

4. Matnda: "**menimcha, mening fikrimcha, birinchidan, ikkinchidan, shu kabi, demak, biroq, unday bo'lsa men shunday xulosaga keldimki.., qisqasi, asosiy fikrim shu-ki.., xulosa qilib aytganda**" kabi kirish so'z va birikmalardan foydalanish fikrlarni ifodalashda qo'l keladi.

5. Matn tuzilishi shunday bo'lishi kerakki, dastlab butun matnning mazmunini ochib beruvchi fikr keltirilishi, keyin ketma-ketlikda o'sha fikrni dalillash kerak bo'ladi. G'oyani ochib berish kirish

qismining, uni izohlash esa asosiy qismning vazifasidir. Agar matn mayda detallarni keltirish orqali boshlanib, asosiy voqeа-hodisa oxiriga olib qо'ylsa, bu matnning zerikarli bo'lib qolishiga, o'quvchining e'tiborini qarata olmaslikka sabab bo'lishi mumkin.

Ish yuritish tili va uslubi

1. Hujjatlar tilida qoliplashgan so'z birikmalaridan ko'proq foydalaniladi.

2. Hujjatda ot va fe'lga tegishli so'zlar ko'proq qo'llaniladi. Hujjatlarda asosan, darak va buyruq gaplardan foydalaniladi.

3. Fe'l shakllarining qo'llanishida ham birmuncha o'ziga xosliklar mavjud: tasdiqlansin, topshirilsin.

4. Zarur holatlarda e'tiroz yoki o'rinali takliflar bildirilishi mumkin. Ammo rahbarga nisbatan hurmat saqlanishi, murojaat odo-biga amal qilinishi zarur. 1. "**siz**" so'zini bosh harf bilan yozish orqali: "**Sizga**" 2. Fikriy bog'liqlik "**bu**", "**ushbu**", "**mazkur**", "**shunga muvofiq**" kabi so'zlar yordamida ta'minlanadi. 3. Taklif va e'tirozlar "**bizningcha**", "**shartnomaga ko'ra**", "**deb o'yaymiz**" kabi so'z va so'z birikmalari orqali ifodalananadi

10. Ish qog'ozlarida emotsional baho beruvchi so'zlar, so'zlashuvga xos so'zlar, biror shevaga xos so'zlar ishlatilmaydi. Hujjatlar o'zbek adabiy tili me'yoriga muvofiq tarzda yozilishi shart. Lekin ish qog'ozlarining ayrim turlarida (**masalan, tabriknoma**) emotsional-ekspressivlik ifodalovchi so'zlar ishlatiladi. Aslida qonun tili bilan rasmiy-idoraviy uslub bir narsa emas. Qonun tilida birinchi va ikkinchi shaxs kishilik olmoshlari (**men, sen, biz, siz**) deyarli qo'llanmasa, ish qog'ozlarida men, siz olmoshlari ko'p ishlatiladi.

11. Ma'lumotnoma matni "**Berildi shul haqdakim**" tarzida boshlanishi mumkin emas!

KO'P BERILADIGAN SAVOLLAR

1. Odatda: vergul kerakmi yoki yo'q?

Odatda so'zidan so'ng vergul ishlatilgan holatlar ko'p ko'zga tashlanadi. Aslida bu so'z vergul talab qilmaydi.

Ushbu so'z ravish turkumiga oid va odat bo'yicha, odatga ko'ra degan ma'noni anglatadi. Kirish so'z yoki modal so'z emas. Ravishlar esa vergul so'raydigan so'zlar toifasiga kirmaydi:

Odatda kichiklar kattalarga salom beradi.

Odatda har qanday hikoyaning ham boshi, o'rtasi, adog'i bo'ladi.

N. Safarov, Olovli izlar.

Bahs ketayotganda odatda baqirgan tomon yutqazadi.

F. Musajonov, Himmel.

O'rmonjon odatda ish sostroq yoki yomonroq ketayotgan uchastkalarga borar edi.

A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari.

2. “Balki” va tinish belgisi

Balki so'zi fors tilidan kirgan, asliyatda ehtimol va ammo ma'nolarini bildiradi. O'zbek tilida bog'lovchi va kirish so'z sifatida ishlataladi.

Bog'lovchi sifatida zid ma'noli gaplarni, gap bo'laklarini bir-biriga bog'lash, qiyoslash uchun xizmat qiladi. Bu holatda balki so'zidan oldin vergul qo'yiladi:

U sodiq qul, balki undan battar odam edi.

Oybek, Tanlangan asarlar.

Yolg'iz o'zi emas, balki butun kosib ahlining ahvoli pachava ekanini ochib tashladi.

Oybek, Tanlangan asarlar.

Kuchlilik – kurashda yiqitishda emas, balki g'azabi kelganda, o'zini bosib olishdadir.

“Fan va turmush”.

Kirish so'z bo'lib kelganda esa gumon, taxmin ma'nolarini bildiradi. Bu holatda balki so'zidan so'ng vergul qo'yiladi:

Balki, mahallasidan ham xotinlar kelgandir.

S. Zunnunova, Olov.

Balki, kutar meni bir qiz, ko'zyoshlari oqizoq.

“Sharq yulduzi”.

Balki, bu qiz Ona bo'lur tug'ilajak o'g'limga.

Mirtemir.

Qachon so'zdan oldin, qachon keyin vergul qo'yilishini qanday oson aniqlash mumkin? Balki so'zi zidlov, qiyoslov ma'nolarini bildirsa va uning o'rnida aksincha so'zini qo'llash mumkin bo'lsa, undan oldin vergul qo'ying. Masalan:

Yolg'iz o'zi emas, balki butun kosib ahlining ahvoli pachava ekanini ochib tashladi. => Yolg'iz o'zi emas, aksincha, butun

kosib ahlining ahvoli pachava ekanini ochib tashladi.

Kuchlilik – kurashda yiqitishda emas, balki g‘azabi kelganda, o‘zini bosib olishdadir. => Kuchlilik – kurashda yiqitishda emas, aksincha, g‘azabi kelganda, o‘zini bosib olishdadir.

Yana bir belgi: balki so‘zi qatnashgan qo‘shma gaplarning oldingi qismiga nafaqat so‘zini qo‘yish mumkin bo‘lsa ham, balkidan oldin vergul qo‘yiladi. Masalan, yuqoridagi gap:

U [nafaqat] sodiq qul, balki undan battar odam edi.

Taxmin ma’nosini bildirsa va uning o‘rnida ehtimol so‘zini ishlata olsangiz, vergulning o‘rni so‘zdan keyin:

Balki, mahallasidan ham xotinlar kelgandir. => Ehtimol, mahallasidan ham xotinlar kelgandir.

Balki, kutar meni bir qiz, ko‘zyoshlari oqizoq. => Ehtimol, kutar meni bir qiz, ko‘zyoshlari oqizoq.

Balki, bu qiz Ona bo‘lur tug‘ilajak o‘g‘limga. => Ehtimol, bu qiz Ona bo‘lur tug‘ilajak o‘g‘limga.

3. Aks holda: vergul kerakmi yoki yo‘q?

Aks holda birikmasi gap boshida o‘zidan keyin, gap ichida har ikki tomondan vergul talab qiladi. Gap oxirida kelmaydi hisob. Mabodo kelgan taqdirda ham, qoidaga ko‘ra, undan oldin vergul qo‘yish zarur.

Birikma shunday bo‘lmagan (qilinmagan) taqdirda; bo‘lmasa degan ma’noda ishlatalidi:

Insoniyat qonunlarsiz yasholmaydi. Aks holda, uning huquqi poymol bo‘ladi.

Gazetadan.

Sizni tanimadi chog‘i, boyvachcham, aks holda, salomlashar edi, u juda dilkash yigit.

K. Yashin, Hamza.

Uning ma’nodoshlari – bo‘lmasa, yo‘qsa so‘zlari bilan ham vergul xuddi shu tartibda ishlatalidi:

Har kuni xonadonimizda yangi gap chiqib turadi. Bo‘lmasa, qaynonamning uyqusi kelmaydi.

Gazetadan.

Uylansam, Mahbubaga uylanaman, bo‘lmasa, frontga ariza berib ketaman, deb ikki oyog‘ini bir etikka tiqib turib oldi.

S. Ahmad, Ufq.

Bu qoidani yaxshilab o'rganib olish kerak. Yo'qsa, xatoga yo'l qo'yish mumkin.

Tezroq yuring, yo'qsa, kechikib qolamiz.

Izohli lug'at bo'lmasa so'zini zidlov bog'lovchisi deb beribdi. Aks holda va yo'qsa ham zidlov bog'lovchisi hisoblanadimi-yo'qmi – buni tilshunoslarga qoldiramiz.

4. Namoyon va namoyanda

Bu ikki so'z tilimizga forschadan o'tgan.

Namoyon o'zbek tilida yaqqol ko'rinish turadigan, gavdalanadigan; ochiq-oshkor, ravshan ko'rinish, ko'rsatish mazmunida qo'llanadi: namoyon bo'lmoq, namoyon qilmoq.

Namoyanda biror ijtimoiy guruuhga yoki sohaga mansub bo'lgan shaxs; vakil ma'nolarini bildiradi: o'zbek adabiyoti namoyandalari, fan namoyandalari.

Namoyon va namoyanda so'zлари tarkibidagi namo(y) forschana namudan – “ko'rinoq” fe'lining hozirgi zamona asosidir. Shu asosga -on qo'shimchasini qo'shish orqali namoyon so'zi hosil qilingan. Asliyatda yaqqol ko'rinish turadigan ma'nosini anglatadi.

Namoyanda so'zida esa asosga -anda ko'shimchasini qo'shib, forschada hozirgi zamona sifatdoshi yasalgan. Bu so'z asliyatda “biror soha yoki ijtimoiy guruuning vakili” ma'nosini anglatadi.

Ikki so'z ham o'zbek tiliga tub so'z sifatida o'zlashgan. Tilimizda ular asos va qo'shimchalarga ajralmaydi.

Demak:

Namoyon, namoyanda –

Namoyan, namoyonda –

5. Pulli va pullik: qay biri to'g'ri?

-li va -lik qo'shimchalarini xato qo'llash ko'p uchraydi. Ayniqsa, og'zaki nutqda -li o'rnida -lik ishlatalishiga tez-tez guvoh bo'lish mumkin. Bu holat yozma nutqqa ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Hatto nufuzli nashrlarda ham -lik qo'shimchasi bilan bog'liq yanglishliklar ko'zga tashlanadi. Masalan, pulli so'zi o'rniga pullik so'zini ishlatalish. Internetga qidiruv bersangiz, so'z to'g'ri yozilgan holatlarga ham duch kelasiz.

Nega pullik yo'l deyish xato?

-lik mavhum ot yasovchi qo'shimchadir: bolalik, kelinlik, tilshunoslik, temirchilik, tinchlik, tashkilotchilik, darslik.

-li esa sifat yasovchi qo'shimchadir: bolali, mevali, aqlli, suvli, unumli, bilimli, yetarli, tushunarli, sezilarli, yeishli.

Pulli yo'l birikmasida pulli so'zi yo'Ining qandayligini sifatlab kelyapti. Pullik so'zi esa ot. Shu sababli uni qo'llash xato.

Pulli so'zining pul to'lanadigan, pul evaziga olinadigan, beriladigan yoki qilinadigan degan ma'nosi bor: pulli konsert, pulli ma'ruza, pulli xizmat. Pulli yo'l birikmasida pulli so'zining shu ma'nosi ifodalangan: pul to'lanadigan yo'l, pul evaziga yuriladigan yo'l.

Pullik degan so'z ham bormi? Bor. Lekin u izohli lug'atga kirmabdi. Imlo lug'atidan esa joy olgan. Bu so'zning ma'nosi nima? U pul xususiyati, belgisini bildiruvchi otdir. Masalan:

G'ijimlab tashlabsan-ku, pulligi qolmabdi buni!

Qog'oz pul g'ijimlab tashlanganidan pullik xususiyatini yo'qtgan.

Demak:

Pulli yo'l, pulli xizmat

Pullik yo'l, pullik xizmat

6. So'ngi yoki so'nggi?

Oxiri ng harfi bilan tugagan va qo'shimcha qo'shilgan so'zlarni yozishda chalkashliklarga yo'l qo'yiladi. Masalan, so'ngi – so'nggi, tongi – tonggi. Bunga asosiy sabab – ng tovushini ikkita harf bilan ifodalash. Bitta tovushni yozuvda ikkita harf bilan ifodalanishi shunaqa muammolarni keltirib chiqaradi.

Xo'sh, adashmaslik uchun nima qilish kerak? Masalaning mohiyatini anglab olish uchun ba'zi qoidachalarga amal qilsak bo'ldi:

1. Ng ni bitta harf deb tasavvur etish kerak.
2. Ng bilan tugagan so'zni alohida ajratib olib, unga qaysi qo'shimcha qo'shilayotganini aniqlash zarur.
3. Ng bilan tugagan so'zlar o'rniga ularning sinonimlarini xayolan qo'yib ko'rsa bo'ladi.

Masalan:

Darsning so'ngi. Bu xuddi darsning boshlanishi deganga o'xhash birikma. Boshlanish so'zidan keyin bitta -i egalik qo'shimchasi qo'shilyapti. So'ng so'zidan keyin ham bitta qo'shimcha bor, demak, so'ng + i = so'ngi bo'ladi.

Endi sinonim bilan alishtirib ko'ramiz. So'ng so'ziga oxir so'zi sinonim. *Darsning oxiri* birikmasidagi oxir so'zi o'rniga so'ngi qo'yamiz: darsning so'ngi.

So'nggi imkoniyat. Bu xuddi oldingi imkoniyat deganga o'xshash birikma. Oldin so'zidan keyin -gi so'z yasovchi qo'shimchasi qo'shilyapti. So'ng so'zidan keyin ham shu qo'shimcha turibdi, demak, so'ng + gi = so'nggi bo'ladi.

Endi ma'nodosh so'zdan foydalanamiz. So'ng so'ziga oxir so'zi sinonim. Oxirgi imkoniyat birikmasidagi oxir so'zi o'rniga so'ngni qo'yamiz: so'nggi imkoniyat.

1. To'g'rilamoq

Izohli lug'atga ko'ra, bu so'z o'zbek tilida quyidagi ma'nolarda ishlataladi:

1. To'g'ri shaklga yoki holga keltirmoq, to'g'ri, adil, tik qilmoq.

Daryo o'zanini to'g'rilamoq. Egilgan o'qni to'g'rilamoq.

2. Xato, nuqson va shu kabilarni yo'qotmoq, tuzatmoq.

Imlo xatolarini to'g'rilamoq. Talaffuzni to'g'rilamoq. Soatni to'g'rilamoq.

3. Tegishli vaziyatga keltirmoq, tartibga solmoq, tuzatmoq.

Yoqangni to'g'rilib ol. Sochingni to'g'rila sang-chi, to'zib ketibdi-ku.

4. Biror tomonga qaratmoq, ro'para qilmoq; yo'naltirmoq.

Projektorlarni samolyotga to'g'rilamoq.

5. So'zlashuv tilida: epini, ilojini qilib bitirmoq, yuzaga keltirmoq, muhayyo qilmoq; eplashtirmoq.

Mushkul ishni to'g'rilamoq. *Bu haqda tashvish qilmang, o'zimiz to'g'riliyimiz.*

To'g'rilamoq so'zi va uning shakllarini yozishda ko'p xato qilinadi. Buning sababi, menimcha, to'g'rilamoq so'zining o'g'irlamoq so'ziga ohangdoshligi. Shunga qiyosan to'g'irlamoq shaklida yanglish yoziladi. Bu xatordan qutulishning usuli – so'zni yodda saqlab qolish va yozayotgan payt to'g'ri so'zini xayolga keltirishdir.

Demak:

To'g'rilamoq, to'g'riladi, to'g'rilangan

To'g'irlamoq, to'g'irladi, to'g'irlangan

FOYDALI MA'LUMOTLAR

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi va hududiy bo'linmalarining manzillari hamda aloqa ma'lumotlari

(*Toshkent shahri Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib, 103-uy, azimov@navoiy-uni.uz yoki I.M.Azimov@exat.uz*)

AZIMOV Inomjon Mamasodikovich	(97) 732 53 58 (95) 500 77 17 (71) 281 45 67
DEXQONOV Xasanboy Ubaydullayevich	(91) 142 11 31 (71) 281 45 67
BOBOYOROV Urin Maxmudovich	(90) 929 72 68 (71) 281 45 67
Markazning hududiy bo'linmalari Qoraqalpog'iston Respublikasi – Qoraqalpoq davlat universiteti	
BABADJANOV Farxad Kurbanbayevich	(91) 394 04 42
Andijon viloyati – Andijon davlat universiteti	
RASULOV Jo'rabek	(93) 427 49 43
Buxoro viloyati – Buxoro davlat universiteti	
JO'RAYEVA Bibish Muxsinovna	(91) 419 60 89
Sirdaryo viloyati – Guliston	
KUBAYEV Qobil Umarovich	(94) 354 86 67
Jizzax viloyati – Jizzax davlat universiteti	
AHMEDOV Sobir Nazarkosimovich	(94) 342 30 63
Navoiy viloyati – Navoiy davlat pedagogika instituti	
SUYUNOV Husniddin Miltikboyevich	(97) 297 32 21
Namangan viloyati – Namangan davlat universiteti	
QOZOQOVA Nozima Abdulboqiyevna	(99) 811 28 81
Camarqand viloyati – Samarqand davlat universiteti	
ABDIYEV Murodkosim Bolbekovich	(90) 606 09 63
Surxondaryo viloyati – Termiz davlat universiteti	
SATTOROV Shokir Jabborovich	(97) 351 79 00

Toshkent viloyati – Chirchiq davlat pedagogika instituti	
TO‘YCHIYEV Abdurashid Mustafayevich	(97) 874 31 10
Xorazm viloyati – Urganch davlat universiteti	
BEGIMOV Uktam Xaytbayevich	(94) 114 33 77
Farg‘ona viloyati – Farg‘ona davlat universiteti	
HAKIMOV Muhammad Xo‘janovich	(90) 161 37 00
Qashqadaryo viloyati – Qashqadaryo davlat universiteti	
XALILOVA Dilbar Jalilovna	(90) 729 67 69

FOYDALI MANBALAR

O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari: <https://lex.uz/docs/1625271>

O‘zbek tilining izohli lug‘ati: <https://ziyouz.uz/durdona-topamlar/uzbek-tilining-izohli-lugati>

Imlo xatolarini tekshirish uchun: savodxon.uz

Kirill-lotin matn konverterlari: Matn.uz, Alif.uz, bexatobot (telegramda)

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI**

**ADLIYA ORGANLARI VA MUASSASALARIDA
DAVLAT TILIDA ISH YURITISHNI TASHKIL
ETISH BO'YICHA AMALIY QO'LLANMA**

Нашрга тайёрловчи: Ш. Соатова

Муҳаррир: А. Жумамуродов

Саҳифаловчи: Х. Холиёров

Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги қошидаги
«Адолат» миллый хуқуқий ахборот маркази.

Нашр. лиц. AI № 032, 29.10.2019.

Тошкент шаҳри, Амир Темур шохкӯчаси, 19-үй.

Телефонлар: 71-233-28-18, 71-280-55-47

Веб-сайт: www.adolatmarkazi.uz

e-mail: info@adolatmarkazi.uz